

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix-falsafa fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrası**

Namurotova Vazira Shakarboyevna

**QADIMGI AFSONA VA ASOTIRLARDA
AYOL OBRAZI**

**5220200 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi
Malakaviy bitiruv ishi**

Ilmiy rahbar

Djurakulova D.M.

Rasmiy taqrizchi

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya kafedrasining 2012-yil 24-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (№ 14-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. Djurakulov M.D.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2012-yil ____- iyundagi majlisida himoya qilingan va _____ ball bilan baholangan (№ ____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

t.f.d. MATBOBOYEV B.X.

A’zolari:

S A M A R Q A N D – 2012

R E J A:

KIRISH.

ASOSIY QISM:

I-BOB. Ayollar dunyo madaniyatida.

II-BOB. Qadimgi Sharq xalqlari afsona va asotirlarida ayol obrazi.

III-BOB. Qadimgi antik dunyo xalqlari afsonalarida ayollar obrazi
(Qadimgi Gretsiya misolida).

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH

Ayol... u kim (yoki hatto nima?) Yevropacha ta'rifga ko'ra, shaytonning ko'zasi (idishi), sharq maqoliga ko'ra erkakni do'zaxga tushirishga ishlatiladigan ip (arqon) yoki go'zal xonim. Ilon yoki kabutar. Zahar yoki zaharga qarshi malham. "Sen kimsan – ayol" Bu savol asrlar osha erkaklarni qiynab keladi. Bola tug'uvchi oddiy qurilma. Ikkinchi jins. Ijod fantaziyasi tasviri. Ilhom keltiruvchi haqiqiy manba chashma. U hididan mast bo'lganda boshi uzra baland ko'targan, xudosi oldida uyalib qaltiragan, titragan, hatto ustidan kulgan va bozordagi qul kabi kamsitgan.

Shunisi daiqqatga sazovorki, bu ikki rol qanday taqsimlangan: shoirlar va rassomlar ayollarni shohi matolarga burkab, osmono'par taxtlarga ko'targan bo'lsa, faylasuflar ayollarni g'iybat qilgan va yomon so'zlar bilan tahqirlagan. Aslida jahon san'atida sof holda ko'zni qamashtiradigan go'zal ayol obrazi ko'klarga ko'tarilgan. Bir qirg'oq bilan Platon davridan falsafiy fikrlar vodiysida to'planib qolgan tunganmas skeptik baholarga o'rganib olgan erkaklar tushunchasi joylashgan qarama-qarshi qirg'oq o'ratsidagi tubsiz chuqurliklarda yoyilib yotadi. Ayollarga nisbatan tarixiy qarashlar panoramasini tasavvur qilish ushbu bitiruv ishining vazifgfaridan biridir. Ayolning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissalarini qanday qilib o'lchash yoki hatto belgilab qo'yish mumkin. Amerikalik shoir Uolt Uitmen "Asrlar bo'ylab yer kurrasida erkak ulug', ammo uning har bir yotasi ayoldan o'sib chiqqan" degan edi. Ayolning madaniy progressga ta'siri yo yashirin, yo har joyda sochilib yotibdi. Yashirin yoki to'satdan paydo bo'ladi. Tasodifan aytgan gaplari poemalarda paydo bo'lib qoladi. Harbiy harakatlar boshlanganiga ham sababchi yoki yarashuv bitimi ham ular orqali, qasrlar bunyod ettiradi, yangi qandillarni yaratib eskisini vayron qiladi. Hatto balda tasodifan oyog'ini tushirib yuborgan bog'ichlari Moviy Bog'ich Ordenini ta'sis etishga asosiy sabab bo'la oladi. Beshikda aytilgan alladan boshlab, dafn etishdagi yig'igacha ayol erkakni uning butun hayotida sodir bo'ladigan voqealarda kuzatib boradi. Xonadonning madaniy

an'analarning qo'riqchisi, ayol, erkakning ovdan qaytishini kutib turib hunarmandchilik va dehqonchilik kelib chiqishiga asos solgan ham ayoldir. Dastlabki o'troq yerlaga asos solgan ayoldir. Farzand haqida qayg'urib, ko'chmanchi hayotdan voz kechib, don ekilgan yerlarga qurilgan chaylada bolalari bilan o'troq bo'lib o'tirishni ham ayol o'ylab chiqqan. O'z intuitsiaysiga ko'ra hozirgi zamon sivilizatsiyasining birinchi jilg'asi ham ayol hisoblanadi.

I-BOB.

AYOLLAR DUNYO MADANIYATIDA

Qadim-qadimlarda ayollarni ehtirom va hurmat qilinganligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Ayol erkakga bo'ysunishni bilmagan. Qadimiy jamoa a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy va ma'naviy tenglikni, bizga ma'lumki, kollektivchilik ta'minlagan va moddiy boyliklarni yaratish va taqsimlashni keltirib chiqargan. Shu bilan birga ayollar nafaqat erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lgan, balki yuqori ustunlikka ham ega bo'lgan, bu asosan moddiy jihatdan bo'lsa kerak. Uyning "rahbari, boshlig'i, tinchlik saqlovchi" qozisi va xudojo'yi rolidagi ayolning avtoriteti to'g'risida Avgust Bebel juda ishonchli yozgan. Bu asar amerikalik etnolog L.G.Morganning matriarxatning borligi to'g'risidagi g'oyalarida, shotlandiyalik huquqshunos J.R.Mak-Lenian, shvetsariyalik huquq tarixchisi I.Ya.Bahofen asarlarida hamda ularni umumlashtirib shov-shuvlarga sabab bo'lgan F.Engelsning "Davlatning, xususiy mulkchilikning va oilaning kelib chiqishi" asaridan keyin yuzaga kelgan. Tarix sahnasiga kirib kelgan qirol va qirolichalar, hukmronlik qilayotgan o'g'illar siyosatiga dadil ta'sir ko'rsatayotgan onalarni u onalik huquqidan kelib chiqqan deb baholaydi. Qaysiki, ayol mehnati o'zining jamoatchilik ahamiyatini yo'qotib tor uy sharoitiga moslashib qolgan. Yangi "Meniki, mening nonim, mening xo'jaligim" degan tushunchalar paydo bo'lganda ayol to'g'risidagi o'z uyining asirasi degan yozuv yozildi. Ayollarni juda ko'p kamsitish dunyoviy dinlarning gullab yashnashi va paydo bo'lishi epoxasiga to'g'ri keladi. Prtagor ta'biri bilan aytganda feodal davrida hamma narsalarning o'lchovi erkak hisoblangan bo'lsa, diniy jihatdan – xudo bo'lib qoldi. Shunisi diqqatga sazovorki, yangi dinlarning payg'ambarlari Iisus, Budda va Muhammad hamda ularning davomchisi mansiy erkaklar edi, ular Biblya, Tripitak, Qur'on va Toralarga maskulinizatsiya g'oyalarini olib kirgan. Bu yerda ayollarning ikkilamchi konsepsiyasi kelib chiqadi. Bularda hatto erkak ayolning onalik huquqini ham egallashga harkat qiladi. Odamni yaratish to'g'risidagi

Bibliya mifiga asosan (xudo uni qovurg'adan yasagan, bu qovurg'a erkakning ayoliniki edi). U Qur'ondagi erkaklarga murojaat etilgan "Oллоh siz uchun sizning o'zingizdan ayol yasadi va u bilan birga yashang dedi" degan fikrlar bir-biri bilan bog'lanib qo'shilib ketadi. Chuqur o'zgarishlar jinsiy axloqda ro'y berdi. Eramizdan avvalgi 20-yillardan tortib bizning asrimizning 50-yillarigacha yashagan Filon Aleksandreyskiy asarlarida birinchilardan bo'lib bibliya rivoyatlari, falsafiy-diniy ruhda talqin qilingan, unda butun dunyo ehtiroslariga va kimsaning o'z bolasini nobud qilishiga qarshi g'azab bayon qilingan. Yangi axloqiy antiteza sof axloqli erkak va axloqsiz ayol paydo bo'ladi. O'rta asrda sodir bo'lgan tortishuv hozir matal bo'lib tuyuladi. 585-yil Makonski saborida yepiskoplardan biri ayollarga nisbatan "homo" so'zini ishlatib bo'ladimi, degan tortishuvni o'rta tashlagan. Bu ulug' majlis qatnashchilarining ko'pchiligi ayolni inson deb hisoblab bo'lmaydi, degan fikrni bildirishdi. Biroq Yevangeldan keltirilgan sitata tekst parchasiga ko'ra Iisus Xristos "Inson farzandi" hisoblanadi va uning onasi Mariya inson bo'lgani sababli, ushbu mansab qolgan ayollarga ham taalluqlidir. Shunga qaramsdan ushbu muammo ko'p yillar diniy olimlarning aqlini va dilini qitiqlab keldi. 110 yil o'tgandan so'ng "1595-yil Germaniyada birinchi bo'lib V.Atsidalining "Ayollar inson emas" degan dissertatsiyasi chop etildi. Aslida ushbu asar mashhur gumanist va shoirning o'tkir fikrli avtorlik falsifikatsiyasi bo'lib, klerikal adabiyotga parodiyasi hisoblanib, undan olingan xulosalar ham hayolga aylanardi. Biroq zamondoshlar tomonidan jiddiy qabul qilingan ushbu asar bir necha bor qayta nashr etildi, hatto fransuz tiliga ham o'girildi va ko'plab plashatorlarga ilhom bag'ishladi. Ular zavq-shavq bilan hovliqib ayol tabiatiga ko'ra tustovuq, ilon, bo'ri (urg'ochi) tulki, ammo hech qachon inson emas, deb jar solishlariga sabab bo'ldi. Ayollarga nisbatan "Animalistik" nuqtayi nazardan qarash ancha davom etdi. 19-asrda Artur Shopengauer ayollarni "G'oz" deb hisoblab kelgan bo'lsa, Fridrix Nitsshe ayollar bilan do'stlashib bo'lmasligi sababli ular - "mushuk", eng yaxshi hollarda "sigir" deb jar soldi. Shunday tendension hamlalarga sabab

bormidi, degan savol tug'iladi. Ha, bor edi. Ayolni ko'ra olmovchilar nazariyasi qiyshiq oynalarda ayollarning haqiqiy tragediyasi yaqqol ko'rinib qoldi. Brinchidan, ko'p davom etgan ijtimoiy va axloqiy kamsitishlar uning hayotini chegaralab qo'ydi. Bularga genekeya (greklardagi uyning ayollarga ajratilgan yarim qismi) atrium (rimliklarda), xaram (rus termini) va hokazolar sababchidir. Bular ayol hulqi, xarakteri xususiyatlarining pasayib ketishiga olib keldi. Ikkinchidan, ayol ongini bola tug'ish jarayonining sust boshqarishi yoki boshqara olmaslik oqibatida chegaralab qo'ydi. Ayol biologiyasiga bog'liq bo'lgan qayg'urishlar ko'plab homilador bo'lishi, tug'ish, bolalarni emizish, xuddi shuningdek, ijtimoiy sabablar ayollarni intellektual sferadan siqib chiqarishiga olib keldi. Shunisi xarakterliki, ayolning asosiy ishonchi erkaklarga so'zsiz bo'ysinish va ko'p bola tug'ib, avlod qoldirishda edi. Farzandsiz Rahil – Bibliya Lakovenning xotini bo'lib, xudodan o'z sharmandaligini yuvish uchun o'ziga o'lim so'ragan. Ming yillar davom etgan oilaning yakkalab qo'yilmaganligi botqog'iga botib qolgan ayol, shubhasiz, ko'plab destruktiv ta'sirlarga uchragan. Shubhasizki, hozirgi zamon Amerika adabiyotida shunday tarixiy parallel paydo bo'lgan, ya'ni Amerikadagi qora qullarning hayotiy tajribasi ayollarning hayotiy tajribasidir. Shular tahlil qilinganki, janob avtoritetiga bo'ysungan "yopiq tizimli" hayot qullarda va ayollarda o'zaro o'xshash xarakterlarni va axloqiy orintirlarni keltirib chiqargan. Ayol shaxsiy hayotining buzilishida "uy mehnati" ham o'z rolini o'ynagan. Bir qator hozirgi davr avtor feministlari ushbu mehnatning monotonligi (bir xilligi) va tugallanmasligi haqida gapirganda, ular ushbu mehnat ayolni robotga aylantirib qo'ydi, deb tasdiqlaganlarida adashmagan. Ammo shu narsalarga e'tibor qaratish kerakki, ayollarning shaxsiy-xususiy dunyo yopiq olamida ko'p vaqt bo'lishligi, ular tomonidan axloqiy sferada yetuk yutuqlarga erishishiga sabab bo'ldi. Insoniyat hayotiga ayollar tomonidan eng yorqin ranglar kiritildi. Chunki ular erkaklarga qaraganda ko'proq qayg'urish xususiyatiga ega. Bunday ayol va erkaklarning hayot sferasining tarixiy bo'lib qo'yish ayolning haqiqiy va

erkaklarning abstrakt (hayoliy) dunyoqarashining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Ayol etikasining aniqligi bu begona kishilarning dardini "yurakka yaqin tutishi" qobiliyatining ko'rinishidir. Bu jarayonda ayollar qarindoshga aylanadi. Ayrim felministlar taxminiga ko'ra, erkaklar abstrakt fikrlash qobiliyatiga ega, asosan, yirik ko'lamdagi harbiy operatsiyaning sovuqqonlik bilan rejalashtira oladilar, ammo ularga shunday insoniy xususiyat yetishmaydiki, masalan, ular begonalar farzandining o'limini o'zining farzandining o'limi kabi qabul qila olmaydi. Agar ayollarninig urushga bo'lgan munosabatlari to'g'risida so'zlasak, shuni tan olish kerakki, ayolning hayotiy maqsadi va urush – bu bir-biriga to'g'ri kelmaydigan narsalar, chunki har bir ayolning burchi farzandlari kamol toptirishi va ularning hayotini saqlab qolish, ularning hayotini xavf ostiga yoki yo'q bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir. Ayrim shart-sharoitlarga ko'ra ayollar tarixda bir necha bor urush harakatlarini qo'llab quvatlagan, urushga o'z farzandlarini yuborgan yoki o'zi urushda qatnashgan. Onalik tajribasi, shubhasizki, ayol axloqiy portretini yaratishda asosiy ahamiyat kasb etgan. Bunda erkaklarnikiga qaraganda ko'proq iliq ranglar mavjud. Demak, erkaklarnikiga muqobil sifatida muhim ayol axloqi mavjud. Shunga qaramasdan o'z tarkibiga ko'ra muskulli bo'lgan insoniyat madaniyati patriarxal sharoitlarda ulg'ayib, ko'p jihatdan erkak idealiga suyanadi. Axloq ham shu kabi ochiqcha yoki yashirin, ixtiyoriy yoki beixtiyor variantlardan voz kechib ayol xarakteri va axloqi bilan qo'shib olib boriladi. Demak, hozirgi zamon uchun umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirishda ayol axloqi yutuqlariga suyanish ancha samaradorli bo'lsa kerak. Ayol axloqining hozirgi zamon axloqi tizimiga kirib borishining ushbu jarayoni, ko'rinib turibdiki, bizning ko'z oldimizda yuz bermoqda. Urush va qarshi turishliklarning agressiya va agressivlikning qattiq erkaklar avtoritetidan voz kechish bu dunyoga birov hukumronligi nuqtayi nazardan emas, balki hamdardlikni sitqi dildan chuqur his etish – hozirgi kun axloqidagi iliqlikning birinchi qaldirg'ochlaridir. Eng ajoyib boy mavzu - Sevgi falsafasidir, qaysiki,

ayol eng ko'p qirrali rolni bajaradi, baxtga qarshi, ushbu mavzu ushbu ishimizda chetda qolib ketdi. Shu narsa aniqki, "ayol" mavzusi tugamaydi, uning o'zi kabi unga oxirgi nuqta qo'yib bo'lmaydi.

Bular ko'p sonli ayollar an'analar – dastlabki ajdodlari "Buyuk onalar, xudolar onasi, ajdodlar" kabidir. Masalan, monlar (janubiy Birma va janubiy-g'arbiy Tailand)da birinchi aqlli mavjudot ayol – Itaygetiya Sangasam hisoblangan. Bo'sh dunyoda bu ayol hamma foydali narsalarni yaratgan va ularga nom ato etgan. Hamma narsa tayyor bo'lgandan so'ng ayollardan bolalar tug'iladi va ularning paydo bo'lishidan insoniyat ajdodlari boshlanadi. Ma'lumki, ko'plab kosmogonik miflarda er va xotin bir xil boshlanadi va ikki qarama-qarshi taraf hisoblanadi. Ularning birikishidan osmon, yer va odamlar paydo bo'ladi. Har xil jins to'g'risidagi dastlabki qadimgi tillarda qayd etilgan. Haqiqiy dunyoning nafaqat ko'plab predmetlari, ularning erkak yoki ayol zurriyotiga taalluqliligiga qarab klassifikatsiyalanadi. Taxminlarga ko'ra, o'rta rod kech paydo bo'lgan, hind-yevropa tillari dastlab er va ayol rodlarga ega bo'lgan. Er va ayol boshlanishi haqidagi tasavvurlar tabiat kuchi va og'ma g'oyalardan tarqalgan. Shunday qilib, gapning grammatik strukturalarini o'zida mustahkamlab, kuchli va kuchsizga, yumshoq va g'azabli, qo'pol va nozik taraflari bilan asoslashgan. Donishmandlik xudosi buyuk Afina greklardagi adolatli urushda kuch va ong bilan Zevsga teng, ayrim hollarda ahamiyatiga qarab dastlabki variantlarda qudrati bo'yicha undan ustun turadi. Shunisi diqqatga sazovorki, arxaik mifologiyaga ko'ra, matriarxatlikni hisobga olsak, u buyuk ona – xudo hisoblangan va olamdagi hamma tirik zotni yaratgan. Qadimgi Misr mifologik xudo ayol Isida yirik ahamiyat kasb etadi, bu an'ana boshqa ayol onalarni yig'ib, universal xudoga aylangan. U eri va akasi Osiris va ularning o'g'li Gorga nafaqat Misrda, balki undan yiroq o'lkalarda ham sig'inishgan, hatto Gretsiya va Rimda ham sig'inishgan. Uning Osirisga bo'lgan muhabbati shunchalik yuqoriki, u o'lim va hayot o'rtasidagi chegarani kesib o'tadi. Osiris makkorona o'ldirilganda uning o'lik tanasini izlab topib, o'likdan

homilador bo'ladi va o'g'li Gorni dunyoga keltiradi. Bu o'g'li otasi uchun qasos oladi va uni ko'klarga ko'taradi. Bola tutib turgan ayol xudo obrazi xristianlarda ko'p uchraydi. Din dastlab ayol tomonidan yaratilgan gipoteza to'g'ri chiqib, hozirgacha u an'analarga xizmat qilmoqda. Orinyak epoxasidagi arxeologlar tomonidan topilgan o'nlab ayollar statuetkalari hozirgacha jumboq bo'lib qolmoqda. Ular kimlarni tasvirlagan bo'lishi mumkin, degan savol tug'iladi, balki bular o'ziga xos jiriqlardir, ya'ni oilaviy ajdod an'alarini bajaruvchilardir. S.Tokarevning fikriga ko'ra, ularda olov egasi tasvirlangan bo'lishi mumkin. U yoki bu bo'lishligidan qat'iy nazar ushbu fikrlar ayollarning qadimiy an'analarga bog'liqligini bildiradi. Matriarxat nazariyasining aktiv himoyachisi nemis arxeologi S.Vardmanning tengsiz, ammo ko'p jihatdan tortishuvlarga sababchi, qiziqarli kitobi bilan o'quvchilar tanishishdi. U shunday yozadi: "Qaysidir yuqori ilohiy, kuchga ega bo'lgan jonzot g'oyalarisiz bizning ota-bobolarimiz yashay olmas edilar"¹. Shunisi ma'lumki, bu kuchlarning biri ona-xudo, ya'ni ayolga sig'inishganliklarini osonlikcha isbotlash mumkin. Mifda ayolning paydo bo'lishi qadimgi inson hayotidagi muhim voqealar bilan bog'liq. Yolg'zlik, tashlab qo'yilganlik, chegaralanganligi va qo'rqish hissi bilan kurashib, dastlabki epoxa ayoli dinga asos solgan. Ayol o'zida tabiatning bir qismini mistik, qorong'u, yetib bo'lmaydigan, hayajonlantiruvchi kuchlarning bir qismini ko'ra bilgan. Bu baxt va qayg'u, hayot va o'lim keltirishini bilgan. Uni hayotni yaratish, qo'llab-quvvatlash, tug'ish va boqish harakatga keltirgan. Shuning uchun ham ayol u va bu dunyo o'rtasidagi vositachiga aylangan. Ayol tabiat va haqiqiy hayotdan ustun turuvchi eshikni ochib bergan. Ayrim hollda shunday taassurot tug'iladiki, u yoki bu diniy din arealida erkaklar monopoliyasi o'rnatilganday tuyiladi. Shunday taassurot, masalan, Avstraliya diniga nisbatan barqarordir, chunki erkaklar an'analarda ayollarni siqib chiqargan. Biroq tadqiqotchilar Avstraliya miflari va afsonalariga e'tibor berishga imkon topganlarida shu narsa ayon bo'ldiki, ayollar nafaqat

¹ Вардман С. Женщина в древнем мире. –М., 1991, 69-б.

ularning madaniy hayotida aktiv rolni ijro etadi, balki bosh rolni ijro etadi. Ayol obrazi hamma mif qahramonlari kategoriyalari o'rtasida uchraydi. Dastlabki ajdodlarda urug' va qabila ajdodlari madaniy qahramonlardan demiurglar, arvohlardan ko'ngli ochiqlari va g'azablilari, xudolar orasidan dunyo hukmronlari uchraydilar. Rahm-shafqatli tarafkashlar yoki rahmsiz qasoskorlar va odamxo'rlar, ular har xil ko'rinishda va har xil xarakterli. Biroq kam hollarda har xil xalqlarning mifologiyasidagi ayol obrazi bir-biriga o'xshash. Birinchi navbatda, ajdodlar, oila o'chog'ining himoyachilari ayollarga xos bo'lgan xos va muhabbat xudolari qonuniyatga ko'ra butun dunyo to'g'risidagi muhim masalalardan o'sib chiqqan va ayol talabiga javob beruvchilardir. Shunisi qiziqki, keyinchalik paydo bo'lgan ayol obrazlar bir-biriga o'xshash. Masalan, Xitoy xudosi Ga-Gu doya kampir va bolalarni tug'dirish himoyachisi sifatida aniq biografiyaga ega. Ga momo epchil tug'dirar va u o'lgandan keyin unga bag'ishlab ibodatxona qurilgan. Mifik ayol obrazlari orasida shoir tabiatlilari ham uchraydi, masalan, Axsanlutti navohadagi, armon, muhabbat va suv xudosi Astxik xitoyliklardan Bisi Yuzn tszyun. Biz poeziya deb ataydiganlarimiz ular qadimiylar uchun haqiqiy hayotdir. Ular uchun xudolar va qahramonlar teatr qahramonlari uchun maskarad emas. E.Taylorning fikriga ko'ra, qadimiy xalqlarda sivilizatsiyalashmagan tabiat, cheksiz fantastik aniqlikda tengsiz chuqur fahm-farosat bilan tasvirlangan. Haqiqatan ham qadimgi misrliklar Sirius yulduzini Isida ko'z yoshlari bilan tenglashtirilgan. Aslida ular qishki tanaffusdan so'ng osmonda yana Sirius (Sotis) paydo bo'ladi deb chuqur ishonishgan. Bunda Irius ko'z yoshlarini Nilga to'kib eri to'g'risida qayg'urib yig'lagan, Ko'z yoshlari daryoni to'ldirib buyuk toshqin boshlangan. Biz ming yillardan keyin qadimgilar bularni ajoyib tasvirlaganlarini ko'rib qoyil qolamiz. Ular uchun bu oddiy kartinani tasvirlash emas, balki ular uchun bu dunyoni tushunish va tushuntira bilish usuli edi. Ular milliy tarixning tongini tasvirlashgan. Xalq eposlaridagi qahramonlarning ko'rinishi va xulqi ayollarning juda ham mustaqilligidan darak beradi. Ko'p hollarda bu jasur

jangchi erkaklar bilan raqiblikda epchillik va jasurlikda mongol-tibet-buryat eposi "Gyeser"dagi go'zal Urmay-Gohon, arman eposi "David Sosunskiy"dagi Chmishek-sulton, rus botiri Dunay Ivanovichning xotini Nastasya kabidir. Ayol jangchilarning obrazlari bizni greklarda mashhur bo'lgan Amazonka qabilalari haqidagi mifga qaytishga undaydi. Afsonalarga ko'ra, Aleksandr Makedonskiy bilan qattiq jang qilgan. Amazonkalar haqida xabarlar ko'p bo'lishiga qaramay ularga tarixchilar ham murojaat etishgan. Masalan, Diodor Efesdagi Artemida qasri uchun to'rtta buyuk skulptor tomonidan yasalgan amazonkalarining marmar statuylarining saqlanib qolgan nusxalari, vazalardagi yozuvlar, sarkofagdagi baselflarga qarab amazonkalar bo'lganmi, degan savolga javob izlaydi. Biroq boshqa ayollar podsholigi borligi to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Bu podsholik patriarxal zolimlikka qarshi norozilik oqibatida kelib chiqqan bo'lishi mumkin. 8-asrda Slavakiya hududidagi Vidolva tog'ida "qizlar qo'rg'oni" deb ataluvchi joyda ayol kishi boshchiligidagi ayollar erkaklardan himoyalangan. Ushbu qo'rg'o'n ko'p davom etgan qamaldan keyin taslim bo'lgan. Bir taxminga ko'ra, knyaz PshemisI tomonidan tor-mor etilgan Pyotr I ning tabibi G.Shober Kavkazda bo'lib podshoga juda qiziq hikoyalarni topib kelgan. Ushbu hikoyalarni u arman va turk savdogarlaridan eshitgan. Ular qasam ichib, Kavkaz tog'ida ayollar podsholigi bor deyishgan. Ayollar hatto erkaklarga qurolga teginishga ham ruxsat bermaganlar, ularning o'zi qo'l jangi bilan shug'ullanishadi. Haqiqatan ham 18-asr oxirida etnograflar birlashgan jangovar Kavkaz ayollari to'g'risida fikr yuritishgan. Grek daryosi vodiysining ayol qabridan jangovar pichoq, qalqon, ot anjomlari topilgan. Boshqa shunday topilmalar Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'izistonda olib borilgan qazish ishlari vaqtida ham topilgan. Patriarxatning ayrim qabilalarda borligiga ko'pgina avtorlar shubha bilan qaragan bo'lsa-da, qadimgilar fikriga ko'ra, xomhayol emas. Agar patriarxat ko'p davrga cho'zilsa mehnatning jinsga qarab taqsimlanishining o'z logikasi mavjud bo'lib, ko'pgina savollarga javob topish murakkab. Patriarxat urug' urush keltirib chiqaradi, deb ham tasdiqlay

olmaymiz. Urush oxir-oqibat ayol fahm-farosatiga to'g'ri kelmaydi, deb tan olishimiz mumkin, ammo urushni keltirib chiqaruvchi iqtisodiy va siyosiy qonunlarni rad eta olmaymiz. Patriarxat zolimligiga uchramagan ayol tabiatida bir qator jumboqlar mavjud. Shunisi qiziqki, ayol tarixi, biz yuqorida qayd qilganimizdek, ayol yomonni yaxshiga aylantira oldi. Buning hammasiga o'zining kamsitilishlari, chidamliligi, dildan nozikligi axloqining ajoyibligi sababli erishdi.

II-BOB.

QADIMGI SHARQ XALQLARI AFSONA VA ASOTIRLARIDA AYOL OBRAZI

Qadimgi Misr ma'budalari misrliklar hayotida o'ziga xos o'rinni egallagan. Ularning bir qanchasini ko'rib o'tamiz:

Bastet – quvonch, muhabbat va xushchaqchaqlik ma'budasi; uni ayniqsa Bubastisda e'zozlashgan. U mushuk boshli qilib tasvirlanib, bir qo'lida – skipetr, boshqasida – Ankx ushlab turadi. Barcha mushuklar ustidan hukmronlik qilgan.

Isida² - Qadimgi Misrda eng e'zozlangan ma'buda. U yosh juvon ko'rinishida bo'lib, qo'lida hayot kalitini ushlab turgan. Bosh kiyimi – Xator shoxlari bor quyosh diski. Onalar va bolalar homiysi. Uning hukmronligi osmon va yerga tarqalgan.

Maat – Raning qizi, tartib va haqiqat ma'budasi. Qadimda misrliklar uni boshida pati bor ayol timsolida ko'rishgan. Mifologiyaga ko'ra, aynan u haqiqat va haqqoniylik simvoli hisoblanadi.

Mut – Amon xudosining xotini, Xons onasi – dunyo onasi. Misrliklar kalxat boshli ayol timsolida tasvirlashgan. Uning boshida Yuqori va Qo'yi Misr toji kiyitilgan edi.

Neytx – Qadimgi Misr urush va janjal ma'budasi. Misr mifologiyasiga ko'ra, baland bo'yli, qomatli, o'ta go'zal ayol. O'ng qo'lida doimo Ankxni, chapida esa o'q va yoy ushlab turgan.

Neftis – Setning rafiqasi, Anubisning onasi. Uning boshida oila, xonadon o'chog'i tasvirlangan. Bundan tashqari fir'avnlarni maqbaralarini qo'riqlagan.

Nut – Quyosh va yulduzlar onasi. Mifologiyaga ko'ra, u har kuni kechqurun quyosh diskni yeb, ertalab esa uni dunyoga keltiradi. U yarim egilgan holatda tasvirlanib, ko'pincha fir'avnlarni maqbaralarini qo'riqlagan.

² Isida – ayrim hollarda Isis deb atalgan.

Selkis³ - hayot qo'riqchisi. Qadimgi misrliklar tasavvurida – boshida chayoni bor ayol. Uni Qo'yi Misrda e'zozlashgan.

Sexmet – Ptaxning rafiqasi. Ov va harbiy janggohlar ma'budasi. Sherboshli ayol sifatida tasvirlangan.

Seshat – misrliklar tasavvurida boshi uzra toj kiydiralayotgan yosh ayol obrazi. Qo'llarida yozuv uchun anjomlar ushlab turgan. San'at homiysi sanalgan.

Treris⁴ - Qadimgi Misr mifologiyasiga ko'ra – tug'ish xonalari homiysi. Chaqaloqlar dunyoga kelishida yovuz ruhlardan onalarni saqlovchi ma'buda. U timsohboshli, sheroyoqli etib tasvirlangan.

Xator – boshida sigir shoxlari o'sib chiqqan yosh ayol ko'rinishidagi ma'buda. Ayrim hollarda sigir quloqli, o'ta kam hollarda sigir obrazida tasvirlangan. Xator – «ko'p funksiyali» ma'buda. U muhabbat, raqs, bazm ma'budasi. Tug'ilgan vaqtda u har bir insonga yettita eng yaxshi fazilatlar in'om etgan⁵.

Qadimgi Mesopatamiya ma'budalari ham xilma-xildir. Ularga qisqacha ta'rif berib o'tamiz:

Antu (shumer. - tanlangan) – Anning vafodor xotini;

Aruru (shumer - hosildorlik) – xudolar va insonlarning ajdodi.

Ashshurit – Ashshur xudosining sadoqatli rafiqasi.

Bau – Ningirsu xudosining xotini, Anning qizi va Lagashning haqqoniy egasi.

Gatumdug (shumer – insonni dunyoga keltirgan ayol) – onalarga homiylik qiluvchi ma'buda.

Gula (shumer - ulug'vor) – tabbatga homiylik qiluvchi ma'buda; xudo Asarluxning rafiqasi.

Damkina – Enki xudosining vafodor rafiqasi.

³ Ayrim vaqtlarda – Selgit, Serget, Sekret.

⁴ Ayrim vaqtlarda – Ammut.

⁵ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 63-71-бб.

Ereshkigal – Nergalning rafiqasi hamda Yer osti saltanatining ma’budasi⁶.

Inana – Shumer shahri bo’lmish Uruqning homiysi, muhabbat va harbiy salohiyat ma’budasi.

Nammu (shumer - vayrona) – Enkning onasi, xaos ma’budasi.

Nangis (shumer – uyqu va osoyishtalik) – tushlar ta’birini beruvchi, gumrohlar ma’budasi.

Ningirima – sehrgarlarga homiylik qiluvchi ma’buda.

Ninkarrak – tabiblar homiysi.

Ninlil’ – Nippur shahri homiysi.

Ninurta – dehqonlar homiysi.

Nisaba – g’alla, o’qish va savodxonlik homiysi bo’lib, u odamlarga turli belgilar ko’rsatadi.

Semiramida – yunon mifologiyasida Suriya ma’budasi Derketonning qizi. Tog’da qoldirilgan Semiramidani kabutarlar boqqan, cho’ponlar tarbiyalagan va Vavilon podshosi Nin uni xotinlikka olgan. O’lganidan keyin u kabutarga aylangan. Uning boshchiligida irrigatsiya va mudofaa inshootlari qurilgan. Taxmin qilinishicha, bu malika Shammuramat bo’lgan (eramizdan oldingi IX asr). 7 ta mo’jizalardan biri osilib turuvchi Semiramida bog’i haqidagi afsona Shammuramatga hech aloqasi yo’q, chunki u eramizdan oldingi VI asrda qurilgan.

Qadimgi Hindiston xalqlari tarixida ayollarning roli o’ziga xosdir. Xuddi shu tarzda mifologiyada ham ayol obrazi xilma-xil va turlichadir. Ulardan bir qanchasini ko’rib o’tamiz.

Aditi – («bog’liqsizlik», «chegarasizlik») – Qadimgi Hind mifologiyasida ayol ilohasi, xudolar onasi. «Rigveda»da 80 marotaba eslanadi. Aditini tongda, tushda, kun botishda chaqirishadi. U yorug’lik bilan bog’liq. Ushas – uning aks etilishi bo’lib, uning yo’li keng; u osmon va yerni ushlab turadi, xudolar qahrini

⁶ Гросс П. Талисмания и мифология древнего мира. Ростов на Дону, 2007. 17-22-бб.

qaytaradi, xor-zorlikdan asraydi. Aditi ko'psonli qarindoshchilik rishtalari sistemasiga kiritilgan. «Rigveda»da, eposlar va puranalarda Aditi Dakishning (uchinchi) qizi, Diti va Danuning opasi edi. Uning yettita o'g'li bo'lib, yettinchisi Indra sanaladi. Boshqa motivlarda gunohlardan kechuvchi, ayblardan soqit qiluvchi sifatida ko'rilgan. Ko'pincha duolarda undan shuni so'rashgan.⁷

Apsara (apsaras – «suvdan chiqqanlar») – vedalar va hinduizm mifologiyasida yarim ilohiy ayol mavjudotlardir. Ular asosan osmonda, so'ngra daryo va tog'larda hayot kechirgan. Ayol suv ruhlari sifatida «Rigveda»da va «Atxarvaveda»da uchraydi. Veda tekstlarida insonlarga xavf soluvchi ruhlar deb aytilgan. Hinduizm mifologiyasida gandxarvalar rafiqasi bo'la turib, osmon kurtizankalari va raqqosalari funksiyalarini bajargan. Apsaralar soni puranalarda 20-30 tadan bir necha yuz minggacha yetadi. Ular bir qancha razryadlar bo'yicha klassifikatsiya qilinadi.⁸

Vach (nutq, so'z) – hind mifologiyasida so'z ma'budasi. U osmonda va yerda, suvda va shamolda, butun dunyoda yashaydi. U barcha boyliklarni to'plovchi, kimni yaxshi ko'rsa, u bilan ulashuvchi, braxmanlarga aylantiruvchi; qahri kelsa, Rudra o'qlari bilan yaralovchi ma'buda. U odamlar orasiga nifoq soladi. Keyinchalik sevgi xudosi Kamaning qiziga aylanadi. Ayrim hollarda u vedalar Onasi, momaqaldiraq va chaqmoq xudosi Indraning xotini deb e'tirof etiladi.⁹

Ganga – qadimgi hind mifologiyasida osmon daryosi, tog'lar shohi ximavataning qizi Parvatining singlisi; yerga oqib tushayotgan Gang daryosi timsoli. Puranalarga ko'ra, Ganga Vishnuning barmoqlaridan oqib tushgan. Podsho Bxagiratxining iltimosiga ko'ra, uni ota-bobolari xokini sug'orish uchun yerga tushiriladi. Yerga tushayotgan vaqtda Shiva uni o'zining boshi ustiga qo'yadi, so'ngra yettita irmoq bilan uni tushiradi. Hinduizmda Ganga daryosi muqaddas hisoblanib, u barcha gunohlarni yuvadi, kasalliklardan forig' etadi,

⁷ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 15-б.

⁸ O'sha asar, 34-35-бб.

⁹ O'sha asar,, 1992, 70-б.

o'zining ko'mish joyini shu yerdan topadigan ilohiy hayotda yashaydi, degan tasavvurlar mavjud. Gang daryosi sohillaridagi genduslarning asosiy ziyorat joylari Xardvar, Allaxabad, Varanasi, Sagar va boshqalar.¹⁰

Dakini – hinduizm mifologiyasida qahrli va yovuz ayol mavjudotlar, ma'buda Kalining mulozimlari orasidan joy olgan edi.

Budda mifologiyasida Dakini tahlika soluvchi sifatida namoyon bo'lgan. Ular osmon qizlari bo'lib, mifologik personajlar panteoniga kiradi. Keng ma'noda – Dakini har qanday ayol-ruh.

Dakishna – qadimgi hind mifologiyasida braxmanga berilayotgan saxrallashtirilgan sovg'a. Ayrim vaqtlarda sovg'a-in'omlar va boylik olib keluvchi ma'buda.¹¹

Devi («ma'buda») – hinduizm mifologiyasida Shiva xudosining xotini. Uning kulti qadimgi (er. avv. III ming yillik) ona-xudo kultiga borib taqaladi. Hinduizm xudolar panteoniga asosiy xudolarning rafiqalarini kirgizadi, shulardan biri Devi edi. U ayrim xalqlarda kamsuqum va mehriboy, ayrim vaqtlarda esa qahrli ma'buda bo'lgan. Devining ijobiy ko'rinishi va boshqalar; qahrli holati esa Durga, Kali, Chandi, Maxeshvari va boshqalar edi.¹²

Draupadi – hind mifologiyasida «Mahabxarata» eposi qahramon, panchallar qabilasi podshosi Draupadining qizi, pandavlar qahramonining xotini. Draupadi – Shri (Lakshmi) ma'budasining yerdagi ko'rinishi edi.¹³

Durga – hinduizm mifologiyasida Shiva rafiqasining ismi. Durga hinduizm panteoniga Buyuk ma'buda – Ona kultining adaptatsiyalashgan formasi bilan kirib kelib, tabiatning bor qiluvchi, yaratuvchi hamda yo'q qiluvchi, vayron etuvchi kuchlarini aks ettiradi. Afsonalarda Durga jangchi ma'buda, xudolar himoyachisi hamda dunyo osoyishtaligini ta'minlovchi ma'buda.¹⁴

¹⁰ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 78-б.

¹¹ O'sha asar, 93-б.

¹² O'sha asar, 96-б.

¹³ O'sha asar, 104-б.

¹⁴ O'sha asar, 105-б.

Kali («qora») – hinduizm mifologiyasida Devining bir ko'rinishi, ilohiy energiya – shaktining qahrli va halokatli boshlanishi. Kali qora rangda, pantera terisini kiygan, bo'ynida kalla suyagidan bo'lgan shoda marjon taqilgan; to'rtta qo'lidan ikkitasida kesilgan kallalar, boshqalarida esa qilich va qurbonlik pichog'i – kxadxu bilan tasvirlangan.¹⁵

Lakshmi («belgi», «baxt», «go'zallik») – hind mifologiyasida baxt, boylik va go'zallik ma'budasi. Uning boshqa ismi Shri («gullab-yashnash», «baxt», «shon-shuhrat»). Lakshmi va Shri ikki xil ma'buda sifatida so'nggi hind adabiyotida uchratilinadi. U Vishnuning rafiqasi; xudolar va asurlar okeani qazishayotganlarida undan qo'lida lotos ushlagan Lakshmi chiqib keladi. Boshqa afsonalarga ko'ra, Lakshmi birinchi paydo bo'lgan suvlardan lotos guliga o'tirgan holda chiqib kelgan.

Mari – Mariama, hind mifologiyasida ayol jinsidagi yovuz kuch bo'lib, Janubiy Hindistonda unga topinishadi. Mari «o'limning onasi», o'lat, qizamiq va boshqa toshma kasalliklar ilohi. U nafaqat ularni yubormasdan, balki ulardan xalos ham etgan. Uni o'tirgan holda, to'rtta qo'lida dumbira, arqon bog'lami, kalla suyagi va uch tishli ayri ushlab turgan holda tasvirlangan. Mariga bag'ishlab har yili raqslar va dramatik tomoshalarga boy bayramlar o'tkazilgan.¹⁶

Parvati («tog'lik») – hinduizm mifologiyasida Shiva xotiniining ismlaridan biri. Afsonalarga ko'ra, Shivaning birinchi xotini Sati, o'zini yoqib yuborgandan so'ng Parvati obrazida qayta tug'iladi.¹⁷

Rati – qadimgi hind mifologiyasida muhabbat ma'budasi. Sevgi ma'budi Kamaning rafiqasi. Afsonalarga ko'ra, Shiva Kamani kuydirib yuborganida Rati Shivaning xotini Parvatiga yalinib, yolvoradi. Shiva uning erini qayta dunyoga keltiradi. Rati Kamani ulg'aytirib, unga turmushga chiqadi. Unga Aniruddxu ismli o'g'il tug'ib beradi. Kama bilan bir qatorda Rati ham mavjud kultga o'ziga

¹⁵ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 129-б.

¹⁶ O'sha asar, 161-б.

¹⁷ O'sha asar, 333-337-бб.

xos o'rinni egallaydi. Janubiy Hindistonda alohida marosim bo'lib, unda Ratining o'zining erini eslab qilgan yig'ilari ijro etiladi.¹⁸

Savitri («quyoshli») – qadimgi hind mifologiyasida 1) muqaddas vedalar metri gayatraning, Quyosh xudosi Suryaning qizi; 2) «Mahabxarata» qahramoni madrlar shohi Ashvapatining qizi.¹⁹

Sarama («tezkor») – hind mifologiyasida: 1) Dakishning qizi, yovvoyi hayvonlarning onasi; 2) Vibxishananing xotini, yovuz podsho Ravan tomonidan o'g'irlangan Sitaga g'amxo'rlik qilgan ma'buda.²⁰

Sarasvati – («suvga tegishli», «ajoyib»), qadimgi hind mifologiyasida daryo va uning ma'budasi. «Rigveda»da Sarasvati eng hurmatga sazovor daryodir (unga uchta madhiya bag'ishlangan). Sandxu Sarasvatining onasi hisoblangan. «Rigveda» da Sarasvati sohillarida yashovchi podsho va odamlar haqida aytilgan. U boy, suvga to'la va intiluvchandir; u tog'dan dengizga oqadi; uning oqimi kattaligi bilan boshqa suvlardan ustun turadi. Uning suvi musaffo, Sarasvati o'zining suvi bilan tog' cho'qqilarini buzadi. U yetti a'zolidir, uni yettita opasi bor. U oqimlar onasi, Poviruning qizi. Uni osmondan tushib qurbonlikda ishtirok etishini so'rashadi. U asur va ilohiy deb ataladi. Sarasvati – poklovchi, Indrani davolaydi, sovg'a, ovqat, avlod, hayotiy kuch, abadiylikni keltiradi; uning ko'kragi va suti eslatiladi. U muqaddas nutq ma'budasi, she'riyat bilan bog'liq, qo'shiqchilarni himoya qiladi. Sarasvati Braxmanning qizi yoki uning xotini, keyinchalik uni Vishnuning xotini deb atashadi.

Sati – qadimgi hind mifologiyasida Dakishning qizi, Shivaning xotini. Afsonalarga qaraganda, Dakish qizining sovchilariga musobaqa o'tkazadi. Shivani xudo o'rnida ko'rmay, uni chaqirmaydi. Sati esa boshqa kuyovlarni xohlamas edi. U gulchambarini osmonga otganida to'satdan paydo bo'lgan Shivaning bo'yniga osilib qoladi. Rozi bo'lmagan Dakish Shivani qurbonliklarga yaqinlashtirmaydi. Nafsoniyati paymol etilgan Sati bunga chiday

¹⁸ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 234-б.

¹⁹ O'sha asar, 230-б.

²⁰ O'sha asar, 232-б.

olmay, o'zini olovga tashlaydi va yonib ketadi (Hindistonda «sati» udumi paydo bo'ladi: erlarining ko'mish gulxanlarida beva ayollar o'z-o'zlarini yoqishadi). Satining kuygan jasadi bilan Shiva ko'p vaqtlar dunyo kezadi. Nihoyat uni Vishnu ko'plab bo'lakchalarga chopib tashlaydi. Bo'lakchalar tushgan yerlar ziyoratgoh markazlarga aylanadi. Bir qancha vaqt o'tgach, Sati Parvati timsolida qayta tug'iladi.²¹

Shakini («qudratli») – hind mifologiyasida ayol jinsli shaytonlar. U qahrli va yovuz Durga yoki Kalini kuzatib yurar edi.²²

Shakti – hinduizm mifologiyasida ilohlar energiyasi, quvvati; Shakti kultlari oliy xudo sifatida namoyon bo'ladi: Shivaning xotini timsolida (Devi, Sati, Durga, Parvati) ko'rinadi. Shakti vayron qiluvchi va yaratuvchi kuchlarga ega. Shakti – oilaviy sadoqat ramzi.²³

Markaziy Osiyo xalqlarida ham bir qancha afsonaviy ayol obrazlari mavjud bo'lib, ularni bir qancha ko'rinishlarda ko'ramiz: yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razolat kabi tushunchalar bilan bog'liqlikda ko'ramiz.

Ambar – ona. O'zbek va Xorazm vohasi xalqlari mifologiyasida ayollar va ayollar mashg'ulotlarining himoyachisi. Hakim otaning xotini, uning vafotidan keyin Zangi boboning xotini. Xorazm vohasidan tashqari Ambar-ona haqidagi tasavvurlar aniq emas. Ambar-ona obrazining asosida Avestodagi hosildorlik xudosi Ardivisura Anaxita turadi. Ambar-onaning o'g'li Xo'bbi-Xo'jani uzoq va muvaffaqiyatsiz izlab yurishlari haqida afsonalar saqlangan. Ambar-onaga doyalik, tabiblik yordamini so'rab murojaat qilishgan. Ambar-onaga bag'ishlangan ko'plab marosimlar suv balosi bilan bog'liqdir. Amudaryo bo'ylab suzgan kemalar tumshug'ida Ambar-onaning boshi tasvirlangan. Ambar-ona nomi bilan ekinlarning o'sishini tezlatish va bahorgi bug'doydan

²¹ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 235-б.

²² O'sha asar, 289-б.

²³ O'sha asar, 289-б.

tayyorlanadigan taom (sumalak)ni tayyorlash udumining kelib chiqishi bog'liqdir.

Asil – turklar mifologiyasida uchib yuruvchi, yevropaliklarning feyasiga o'xshash mavjudot. Oy yoki yulduzlar yorug'ligidan hamda havo oqimlaridan to'qilgan. Go'zal qiz sevgililari bilan birga baxtli hayot kechirishida yordam beruvchi mavjudot²⁴.

Albasti – turklarda, o'zbeklarda – albasti, alvasti; turkmanlarda – al, albassi; qirg'izlarda – albarsti; qoraqalpoqlarda – albasli deb atalib, yovuz jin sanalib, suv stixiyasi bilan bog'liq. Qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar uni martu (martuu, martuv, martuk); Zarafshon vodiysi o'zbeklari – Sariqiz deb ham atashgan. Albasti ko'pincha badbashara, sochlari uzun oqish, ko'kraklari yelkasiga yetadigan darajada uzun qilib ko'ringan. Albasti hayvonlarga va jonsiz predmetlarga aylana oladi, degan ishonchlar bor edi. Qirg'izlar va qozoqlar ko'proq yovuzlik keltiruvchi – qora albasti hamda sariq yoki sassiq albastilarga bo'lishgan. Albastining odatiy atributlari, bular: jodugarlik kitobi, tanga, qalin taroq. Ko'pchilik hollarda albasti daryolar yoki boshqa suv bilan bog'liq manbalar oldida yashab, insonlarga sohil bo'ylarida sochini taragan holda uchragan. Albasti kasallik, tungi dahshatlarni yuborgan. Ayniqsa, endi to'g'ilgan chaqoloqlar va ularning onalariga zarar yetkazganlar²⁵.

Ajina – tojiklar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar va qozoqlarda yovuz ruh. Ajina obrazi islom dinigacha bo'lgan mifologik personajlarning (albasti, pari va b.) qayta ko'rilgan demonologik tasavvurlari edi. Ajina ayol obrazida tasvirlanib, birdaniga razmerlari kattarib ketadigan ulkan ayolga yoki hayvonga, ko'pincha echkiga aylangan²⁶.

Bibi – mushkulkusho («Qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi xonim»), o'zbek va tojiklarda mifologiya personaji, baxtsizliklar, qiyinchiliklarda yordamga chaqirilgan. Bibi-mushkulkusho bilan bog'liq afsonalarning mazmuni

²⁴ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 43-б.

²⁵ O'sha asar, 17-18-бб.

²⁶ O'sha asar, 15-б.

Bibi Seshanba haqidagi afsonaga yaqindir. Ularning qahramoni – kambag'al-chol, o'tin terib yurib o'rog'ini yo'qotadi, uni izlayman deb, Bibi-mushkulkusho yashaydigan g'orga kirib qoladi. U cholga o'rog'i topilishini va judayam ko'p o'tin yig'ishni va'da beradi, faqat chol har chorshanba uning sharafiga dasturxon tuzash kerakligini Bibi-mushkulkusho tayinlaydi. Chol esidan ko'tarilib, bir chorshanbani o'tkazib yuboradi, uni yana nochorlik qarshi oladi, lekin marosimni o'tkazgandan keyin yana o'zini tiklab oladi. Musulmon olamida Bibi-mushkulkusho mashhur Buxorolik Bahovuddin Naqshbandning xolasi hisoblanadi.

Bibi-Seshanba – o'zbeklar va tojiklar mifologiyasida oilaviy baxt homiysi, shuningdek, ip yigiruvchilik va to'qimachilik homiysi. Uning ismidagi «seshanba» so'zi haftaning unga atalgan kunini ko'rsatadi. G'arbiy Yevropadagi Zolushka ertagiga o'xshash afsona, o'chog' kultiga borib taqaladi, qaysikim unda Bibi-Seshanba qari ayol ko'rinishida kambag'al qizga yordam beradi. Bibi-Seshanba haqidagi hikoya marosimiy dasturxon ustida aytilib, unda faqat ayollar qatnashadi. Ushbu marosim to'ydan keyingi kunlarda o'tkaziladi²⁷.

Jalmauz kampir – qozoqlar va qirg'izlar mifologiyasida kampir ko'rinishidagi yettita boshli yovuz mavjudot. U odamxo'r; bolalar o'g'risi; suv ustida bemalol suzadi. Odamga yaqinlashsa, yettiboshli kampirga aylanadi. Analogik personaj o'zbeklar va uyg'urlarda ham bo'lib, yalmog'iz kampir deb ataladi.²⁸

Kampir. Tojik mifologiyasida ayol ruhlari, u moyjuvozlarini, sharavarlarini silkitib, doiralarini chalib shovqin ko'targan. Tojikistonning ba'zi tumanlarida Kampir ma'lumdir. Navruzga 7 kun qolganda Ajuz yoki «Kampir g'orda» deyilgan. Ya'ni sovuq kunlarni kampir g'orga haydasin ma'nosni anglatgan. Kampir qirq quloqli qozonga ega bo'lgan va bu qozonda unga duch kelgan odamlarni qaynatgan. Kampir har xil ko'rinishga kirib va unga asir bo'lgan odamlarni qiynagan.

²⁷ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 57-б.

²⁸ O'sha asar, 111-б.

Momo – tojiklar va ayrim o'zbeklarda ayol ruhlar. Momo – doylar homiysi, shaman ayollar yordamchisi. Ishonchlarga ko'ra, oq kiyimli ayol obrazida ko'rinadi. Momo termini o'zbeklarda, ko'pincha boshqa ruh kategoriyalariga aytilgan. «Momo» termini hurmat yuzasidan boshqa mifologik personajlar ismlariga qo'shib aytilgan. Masalan, Momo – Kuldurak (momqaldiraqni chaqiruvchi ruh), Mom-Havo (Evanning katta buvisi). Ayrim o'zbek qishloqlarida Momo – uyning ruhi bo'lib, sho'xliklar qiladi, deb sanaladi.²⁹

Oy-Barchin – o'zbek eposi «Alpomish»dagi qahramon. Boysarining qizi, Alpomishning qaylig'i. Boybo'ring akasi Baysari u bilan urushib, qalmiq cho'llariga ketib qoladi. Qizi Oy-Barchinni jiyan Alpomish bilan ajratadi. Voyaga yetgan Oy-Barchin qalmiq xonlarining sovchiligidan bezib, Alpomishga xat yozadi. Boysari xatni yashiradi. Singlisi Qaldirg'och oyimning yordami bilan Alpomish Oy-Barchinning oldiga ketadi. Qalmiq bahodiri Qorajon yordamida Alpomish o'z yoriga yetishadi³⁰.

Qirq-qiz. Olloh ularning iltimoslariga ko'ra kofirlardan yashirish uchun toshga aylantirgan. Qirq qiz yashiringan tog' ham hozirda shunday deb ataladi. O'rta Osiyoda bunday joylar ko'plab topildi. Qoraqalpoq mifologiyasida Qirq-qiz – jangchi qizlardir. Ularni dono va oqila sarkarda Guloyim boshqargan. Ular qoraqalpoqlarni qalmoq xoni Surtayish bosqinchiligidan himoyalagan. Zarafshon vohasi o'zbeklari mifologiyasida Qirq-qiz, parilarning xizmatkori, shamanlarning yordamchisi, ruhlarning maxsus toifasi. Qirq-qiz obrazi tojik-fors eposidan olingan. Tojiklar mifologiyasida Qirq-qiz (childuxtaron) musulmon avliyolari kabi sanaladi. Islom qabul qilingungacha Qirq-qiz O'rta Osiyo xalqlari va Eronda mehribon ruh-himoyachi sifatida qaralgan va keyin musulmon avliyolari rolini olishdi.

Shirin – Sharq afsonasi qahramoni, davlat hokimi, Mehin Bonuning singlisi. Shirin betob bo'lib qolganida, Mehin Bonu singlisining hayoti uchun

²⁹ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 182-б.

³⁰ O'sha asar, 16-б.

hech qachon yuzidan qora ro'molni yechmaslikka qasam ichadi. Tuzalgan Shirin yanada guzallashadi. Mehin Bonu unga hashamatli saroyni sovg'a etmoqchi bo'ladi va uni qurilishiga dunyoning barcha burchaklaridan eng yaxshi ustalarni taklif etadi. Ularning ichida ajoyib rassom Farhod bo'ladi, unga bu ikki opa-singillar oshiq bo'ladi. Mehin Bonu Farhodga toju-taxtni taklif etadi, lekin Farhod Shirinni yoqtirib qolgan bo'ladi. Ikki sevimli opasining g'azabidan qochishadi. Ularni tezda tutib kelib Shirinni saroyga, Farhodni esa qoyalardan suv ochib berishni buyuradi. Shaharga suv kelgandagini Farhod Shirinni ko'rish mumkin edi. Farhod 10 yil ishlaydi. Nihoyat qoyalarning orasidan suv otilib chiqadi, shunda chopar kelib unga Shirin vafot etdi deb yolg'on xabarni yetkazdi. Farhod bu alama chiday olmasdan o'zini suv to'lqiniga tashlaydi. Shirin ham sevgilisi Farhodning cho'kib ketganini eshitib, uning ketidan o'zini suvga tashlaydi.

Zoxra – Zuhra, Zuxro – Volgabo'yi, O'rta Osiyo va Ozarbayjon xalqlarining liro-epik qahramonlaridan. Sujetiga ko'ra, podshoh va vazir hali bolalari tug'ilmasidanoq quda bo'lishga ahdlashgan. Podshoh qizi Zuhra va vazirning o'g'li Tohir birga o'sib-ulg'ayib, bir-biriga ko'ngil qo'yishadi. Vazirning o'limidan so'ng podshoh o'z so'zidan tonib, Tohirni sandiqqa solib daryoga oqizadi. Ko'plab qiyinchiliklarni yenggan Tohir vataniga qaytib keladi. Uni tutishib, qatl etishadi. Zuhra o'z joniga qasd qiladi. Ozarbayjon rivoyatiga ko'ra, podshoh jazolanadi. Tohir Zuhraga uylanib, podshoh bo'ladi.³¹

³¹ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992, 115-б.

III-BOB.

Qadimgi antik dunyo xalqlari afsonalarida ayollar obrazi

(Qadimgi Gretsiya misolida)

Amazonka – yunon mifologiyasida Ares va Garmoniyadan kelib chiqqan ayol jangchilar qabilasi. Femiskir shahridagi (Kichik Osiyo) Fermadont daryosida yashaydi. Ma'lum vaqtda Amazonkalar naslni davom ettirish uchun begona yurtliklar bilan nikohdan o'tishadi, o'g'il to'g'ilsa o'ldirib, qizlarni esa qoldirishgan. Amazonkalar nayza-kamonlar, boltalar, yengil qalqonlar bilan qurollangan. Ularning nomlari qizchalarda chap ko'krakni kuydirish odatidan kelib chiqqan. Amazonkalar vaqtlarini janglarda o'tkazib Ares va Artemidaga sig'inishgan. Amazonkalarga qarshi Belliromfont jang qilgan. Gerakl amazonkalar shahrini qamal qildi, qirolicha Ippometaga uylandi. Gesiy Ippometaning onasi Antiopaga uylandi. Amazonkalar Afinani bosib olishdi. Amazonkalar Efes shahriga asos solishdi va u yerda Artemida sharafiga mashhur ibodatxonani qurishdi. Amazonkalar va ularning Olimpiya qahramonlari bilan kurashi to'g'risidagi miflarda matriarxat elementlari ko'ringan.

Grek va Rim tarixiy adabiyotidan amazonkalar haqida qiziq hikoyalar o'qiymiz. Antik dunyo adiblari amazonkalarning skiflar avlodidan bo'lganligini ta'kidlashadi.

Shu o'rinda amazonkalar o'lkasi qayerga joylashgan edi degan savol tug'ilishhi tabiiydir.

Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Girkaniya bilan chegaradosh Fermadonta daryosi bo'ylarida amazonka qabilasi yashagan. Bu qabilaning malikasi, ya'ni shohi Felestris bo'lib, u Kavkaz bilan Fazis (Rion) daryosi o'rtasida yashovchi xalqqa hukmdor bo'lgan³².

Diodor ham «Tarixiy kutubxona» asarida, haqiqatan ham, amazonkalarning bo'lganligini tasdiqlaydi. Adib o'z asarida Kursiy Ruf fikriga

³² Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Изд.: МГУ, 1963, 211- bet.

yaqin ma'lumotni beradi. Bu o'rinda Diodor Sitsiliyskiy o'z asarida yo Kursiy Ruf ijodini o'qib undan foydalangan yoki har ikki adib ham bir xil manbani o'qib chiqqan. Diodor amazonkalar haqida to'xtalib shunday yozadi:

«Keyin Aleksandr Girkaniyaga qaytadi va uning huzuriga Amazonka malikasi (shohi) Falestra tashrif buyuradi. Bu malika Fasom va Fermodonto daryolari o'rtasidagi yerlarga hukmdor edi. Juda jasur, kuchli va go'zal edi»³³.

Diodor amazonkalar haqidagi hikoyasida davom etib, ular skiflar avlodidan ekanligini aytadi. «Amazonkalar, - yozadi Diodor, - faqat Osiyonigina emas, balki Yevropani ham o'zlariga bo'ysundira boshladi»³⁴.

Diodor o'z fikrida davom etib, amazonkalar shohining Aleksandr huzuriga kelganligi haqida yana shunday yozadi: «Aleksandr undan nima uchun kelganligini so'raydi. Shunda Falestra Aleksandrdan farzand ko'rish niyati borligini aytadi, chunki buyuk kishilardan buyuk farzandlar tug'iladi, deb hisoblaydi. Aleksandr Falestraning bu maslahatiga rozi bo'ladi va u bilan 13 kun birga bo'lib katta sovg'alar berib, o'z vataniga kuzatib qo'yadi»³⁵.

Qadimgi tarixiy kitoblarda amazonkalar haqida ko'p qiziq hikoyalarni o'qiganmiz. Amazonkalar haqidagi hikoyalar haqiqatmi yoki afsonami degan fikr xayolingizni chulg'aydi. Bu g'aroyib va jasur ayollarning vatani qayer bo'lgan degan savolga ham turlicha javob topamiz. Kursiy Ruf, Yustin, Pompey Trog kabi adiblar amazonkalarning Kaspiy dengiziga yaqin yerlarda yashaganliklarini qayd qilishadi. Girkaniya bilan chegaradosh Fermodonta daryosi bo'ylarida amazonka qabilasi yashardi. Bu qabilaning malikasi Falestris bo'lib, u Kavkaz bilan Falis daryosi o'rtasida yashovchi xalqqa hukmdor edi.

Aleksandrni ko'rish va u bilan uchrashish niyatida Falestris shohga chopar yuboradi. Shohdan ruxsat olgandan so'ng, 300 ta go'zal ayol bilan uning huzuriga keladi. Amazonkalar kiyimi badanlarini to'liq yopmas edi. Chap ko'kragi ochiq bo'lib, kiyimi tizzasidan pastga tushmasdi. Ular qizlarini emizish

³³ Дiodор. Историческая библиотека. –Ташкент, 1977, 108- б.

³⁴ O'sha asar, 228-b.

³⁵ O'sha asar, 108-b.

uchun faqat o'ng ko'ragini qoldirib, chap ko'krak bezini kesib tashlardi. Go'yoki bu usul ular uchun yoy va nayza otishda qulaylik tug'dirardi. Falestris shon-shuhratga unchalik loyiq bo'lmagan shohning gavdasiga qo'rqmasdan qarab turardi. Hech narsa kerak emasmi, degan shohning savoliga Falestris shunday javob qaytaradi: «Shohdan farzand ko'rishni, agar qiz bo'lsa o'zimda qoldirib, o'g'il bo'lsa shohga merosxo'r qilaman»³⁶.

Kursiy Ruf o'zining asarida amazonkalarga ta'rif berar ekan, xuddi shunday amazonkalar haqidagi ma'lumotlarni Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida ham uchratamiz. Yustin asarini o'qib Amazonkalar haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lamiz. U o'zining «Pompey Trog epitomi» asarida amazonkalar haqida shunday hikoya qiladi.

Amaldorlar nayrangi bilan o'z vatanidan quvg'in qilingan podsho avlodiga mansub ikki o'spirin Pme va Skolopit o'zlari bilan birga ko'plab yosh yigitlarni olib chiqib ketadilar. Ular Termodont daryosi yaqinidagi Kankadokin, Pontiskoy qirg'oqlari bo'ylab joylashgan Temiskir vodiysini egallaydilar. Bu yerdan ular ko'p yillar mobaynida qo'shni qabilalar ustiga yovuz yurishlar qildi. So'ngra ko'p qabilalar o'zaro kelishib, ularni pistirmaga aldab olib kelib qirib tashlaydilar. Ularning beva qolgan xotinlari qo'llariga qurol olib o'z yurtini himoya qila boshlaydilar. Qo'shni qabila erkaklari bilan turmush qurishni ular qullik deb hisoblardilar. Ular erkaklarsiz, o'z davlatini himoya qila boshlaydilar. Ularning ba'zi ayollari boshqalardan o'zlarini baxtliroq sezmasligi uchun, uyida qolgan erkaklarni ham o'ldiradilar. O'z erlarining o'limi uchun ular qo'shni qabilalardan qattiq qasos oladilar. Qurol kuchi bilan qasos olib tinchlik o'rnatgan bu ayollar o'z avlodining yo'q bo'lib ketmasligi uchun qo'shni qabila erkaklari bilan vaqtincha aloqa qila boshlaydilar. Agar o'g'il bola tug'ilsa, o'ldirib tashlardilar. Qizlarni esa qurol ishlatishga, otlarda ov qilishga o'rgatardi. Yoydan o'q otishga xalaqit bermasligi uchun qizlarning o'ng

³⁶ Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Изд.: МГУ, 1963. 211- bet.

siynasini yoshligidayoq kuydirib tashlashardi. Ana shundan amazonka nomi kelib chiqqan.³⁷

Ularning Marpeziya va Lampeto ismli ikkita podshosi bor edi.

Ular jangchilarini ikki qismga bo'lib, navbat bilan o'z chegaralarini qo'riqlay boshlaydilar. Yevropaning katta qismini bo'ysundirib, bir qancha Osiyo mamlakatlarini ham bosib oladilar.

U yerda Efes va boshqa ko'plab shaharlarga asos solib, katta o'lja bilan qo'shinning bir qismini jo'natadilar. Osiyo ustidan hokimlikni saqlab qolish uchun qoldirilgan qo'shinlar o'zaro til biriktirib, maxfiy kurash olib borgan dushmanlar tomonidan yanchib tashlanadi. Marpeziya o'rniga uning qizi Sinona taxtga o'tiradi. Sinona harbiy taktikani o'ta kuchli bilishidan tashqari, umrining oxirigacha qizligini saqlab qolganligi bilan hammani hayratga solardi. Bu podshoh qizning shon-shavkati nihoyatda kuchayib ketib, amazonkalar dong taratadilar. Hatto Gerakl haqida bitilgan afsonadagi podshoh Evristey bir kuni Gerkulesdan talab qilib amazonka podshohining qurolini olib kelishni buyuradi. Gerkules to'qqizta harbiy kemada oliy tabaqa grek o'spirinlari bilan amazonkalarga kutilmaganda hujum qiladi. Bu paytda amazonkalarga ikki opa-singil – Antiona va Oritiya podshohlik qilishardi. Ammo ulardan biri Oritiya o'sha vaqtda o'z davlatidan ancha uzoqda urush olib borardi. Shu sababli Gerkules yengil g'alabaga erishadi. Ko'plab amazonkalar janglarda halok bo'ladi, ko'plari asirga olinadi. Shuningdek, Antionaning ikki singlisi bor bo'lib, ularning biri – Menalinni Gerkules, Ippolitani esa Tesey asira qilib oladilar. Keyinchalik Tesey o'z asirasiga uylanib, undan Ippolit ismli o'g'il ko'radi. Gerkules esa g'alabadan keyin Menalinnani onasiga qaytib beradi, evaziga esa podsho qurolini qo'lga kiritadi. Buyruqni bajargan Gerkules o'z podshosi Evristeyning huzuriga qaytadi³⁸.

Yustin o'z asarida keltirgan amazonkalar haqidagi hikoyani fesseliyaliklarning eng qadimgi yodnomasi (taxminan eramizdan avvalgi – VIII

³⁷ Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. –T., 2006, 216-220-bb.

³⁸ Yustin. Epitoma Pompeya Troga. Vestnik drevney istorii. 1954. № 2, 213-215-bb.

asr) «Ellada qahramonlari» asarida uchratamiz. Yustin o'z asarida keltirgan Gerakl, Evristey, Gerkules, Tesey, Minalist obrazlarini «Ellada qahramonlari»da ham uchratamiz. Biroq «Ellada qahramonlari» asarida amazonkalar haqida kengroq hikoya qilinadi. «Gerakl jangda yengib, Minolitaning kamarini olib keladi» deb nomlanuvchi hikoyatni o'qisak, qadim zamonlarda elladaliklar skiflar yurtiga faqat oltin junli teri qidirib emas, balki charm kamar qidirib ham kelganligi haqida hikoya qilishadi. Bu hikoya skiflar yurtidagi amazonkalar haqida hikoya qilgani uchun batafsil to'xtalishga harakat qilamiz.

Evristey shohning Admeta degan yosh qizi bo'lgan ekan. U bir kuni otasining huzuriga kirib, shunday debdi:

— Sharq tomonda, juda olisda bir podshohlik bor emish, unda mamlakatni xotinlar idora qilar emish. U yerda xotinlar oila boshlig'i, tayanchi hamda uy bekasi emish. Xotinlar shaharlarni boshqararmish, savdo-sotiqni va sudni o'zlari qilisharmish, ehromlarda xudolarga qurbonlik keltirib, davlat ishlarini o'zlari hal qilar emishlar. Ular qurollanib, jangovar otlarda chopar, dushman bilan mardlarcha jang qilar emishlar.

Ular o'zlarini amazonkalar deb atashar, erkaklarni yomon ko'rishar, hech kim bizni yengolmaydi, deb maqtanishar emish. Buyuk Zevsning rafiqasi, menga homiylik qiluvchi Gera menga buning sirini ochdi, jangovar amazonkalarning butun kuchi ularning malikasi Ippolitaga urush xudosi Ares sovg'a qilgan oddiy charm kamarda emish. Agar malika u kamarni bog'lab yursa, o'zini ham, amazonkalarni ham hech kim yenga olmas emish. Ota! Men xuddi o'sha xotin kabi yengilmas bo'lishni, hokimiyatni yolg'iz o'zim idora qilishni xohlayman. Ippolitaning kamariga ega bo'lishni istayman!

Shoh Geraklga amazonkalar mamlakatiga borib, malika Ippolitaning kamarini olib kelishni buyuribdi.

Amazonkalar davlati sharqda, Kichik Osiyoda ekan.

Gerakl katta kema jihozlabdi, sodiq do'stlari – Iolayni, Afina shahzodasi Teseyni va boshqalarni chaqirib olibdi. Ular butun dengizchilar uchun jasur argonavtlar ochgan yo'ldan suzib ketibdilar. Uzoq suzibdilar, oxiri dovul quturib turgan Qora dengizdan o'tib, Fermodont daryosiga chiqibdilar, oqimga qarab yuqoriga suzib borib, amazonkalar poytaxti Femiskira shahriga yetibdilar. Darvozalar oldida qurollangan xotinlar turisharkan, ular charm qalpoq, kalta xitonlar, to'piqlarigacha tushadigan tor, uzun shim kiygan emishlar, yelkalariga oy shaklidagi qalqonlar osib, qo'llariga ikki yuzli bolta olgan emishlar.

Soqchilar Gerakl bilan uning o'rtoqlarini shaharga kiritmabdilar, shuning uchun ular daryo qirg'og'ida, shahar devori tagida joylashishga majbur bo'libdilar.

Ko'p o'tmay, qurollangan qizlar otryadi bilan chiroyli ot mingan malika Ippolita yetib kelibdi. Qizlar ichida malikaning jonajon o'rtog'i go'zal Antiopa ham bor ekan. Bir vaqtlar uning husni amazonkalarni halok qilay degan ekan.

Amazonkalar ko'p vaqtdan buyon Gretsiyaga yurish qilishni o'ylab yurar ekanlar, vaqti kelib ular dengizdan suzib o'tishibdi. Afina devorlari tagiga yetishibdi va go'zal shaharni qamal qilishibdi. Afinaliklar qamalga tayyor emas ekanlar. Sal bo'lmaganda, shahar jangovar amazonkalar qo'liga o'tar ekan. Biroq Antiopa Afina jangchilari orasida shahzoda Teseyni ko'rib qolibdi va unga ishqiy tushibdi. Go'zal amazonka ham Teseyga yoqib, shahzoda uning yordami bilan jonajon shahrini qutqarishiga umid bog'labdi. U tunda Antiopa bilan uchrashish niyatida yashirinib, amazonkalar lageriga kelibdi.

Ippolita o'rtog'ining muhabbatini sezib qolibdi va xiyonatdan qo'rqib, tezda qurshovni to'xtatishni buyuribdi. Amazonkalar Afinadan chekinib, o'z mamlakatlariga qaytib kelishibdi. Antiopa Teseydan judo bo'libdi. Biroq u Teseyni unutmagan ekan, hozir uni Geraklning do'stlari ichida ko'rib, quvonib ketibdi, sevgisi yana kuchliroq alanga olibdi. Tesey ham uni tanibdi, bildirmay uning yoniga boribdi, mahfiy uchrashuv to'g'risida shartlashibdi.

Ippolita Gerakldan nima uchun kelganini so'rabdi.

Gerakl o'ziga malika Ippolitaning kamarini olib kelish buyurilganini aytibdi.

— Men kamarimni faqat jangda g'olib chiqqanga beraman, - debdi malika. Biz bilan jangga chiqing, yengsangiz kamar sizlarniki bo'ladi!

Ippolita kamar o'zida bo'lsa, uni hech kim yenga olmasligiga ko'zi yetib shunday degan ekan.

Ikkala otryad jangga tayyorlanish uchun tarqalibdi.

Amazonkalar shaharga qushday uchishibdi, Geraklning hamrohlari esa daryo bo'yidagi lagerlarida tunab qolishibdi.

Tesey tun bo'yi lagerda bo'lmabdi. Ertalab u quvonib kelib, Geraklga sehrli kamarni beribdi.

— Qanday qilib? Sen uni jangsiz qo'lga tushirdingmi? - debdi Gerakl hayron bo'lib.

— Antiopa uni malikadan o'g'irlab olib, menga berdi, - debdi Tesey.

Gerakl aldov yo'li bilan qo'lga kiritilgan o'ljadan foydalanishga ko'nmabdi, jang boshlanibdi. Amazonkalarning eng shiddatlisi Ayela shamolday uchqur, yovvoyi otda Geraklning ustiga otilibdi. Gerakl ot choptirib kelayotgan amazonkaning qo'lidagi boltasini urib tushiribdi. Shunda Ayela qochib qutulmoqchi bo'libdi, oti uni chetga olib qochibdi, biroq Geraklning o'q-yoyi uni quvib yetib, shu ondayoq o'ldiribdi. Gerakl yakkama-yakka janglarda yetti marta g'olib chiqqan Protoya ismli amazonkani ham halok qilibdi. Shunda uchta qiz, ma'buda Artemidaning o'zi ovga olib chiqadigan, nayza otishda tengi yo'q uchta mohir ovchi oldinga chiqibdi. Uchovlari baravariga shiddat bilan Geraklga nayza otibdilar, biroq tegizolmabdilar. Geraklning nayzasi esa chiyillab uchib borib, uchovining ham qo'lini sindiribdi.

Amazonkalar eng yaxshi jangchilarining yengilganini ko'rib qo'rqib ketibdilar.

— Sho'rimiz quridi! Sho'rimiz quridi! Ippolita, kamaring qani? - deb qichqirishibdi ular.

O'z dugonalariga xiyonat qilganidan Antiopaning yuragi ezilibdi, biroq shu paytda u ellinlar orasida Teseyni ko'rib qolibdi, sevgi uning barcha his-tuyg'ularidan ustun kelibdi.

Ippolita dahshatli qiyofada jonidan umidini uzib, oldinga chiqibdi. Sehrli kamar dushman qo'lida ekanligini faqat u bilan Antiopa bilar ekan. Dovyurak malika darg'azab amazonkalarga dugonasining sirini ochishni istamay, jangda o'lishni ma'qul ko'ribdi. U mardlarcha jangning eng xavfli joyiga o'zini urar, o'ziga o'lim izlar ekan, birdan u o'q-yoydan yaralanib yiqilibdi.

Malikaning o'lganini ko'rgan amazonkalar dovdirab qolib, qochishga tushibdilar. Ularning ko'pchiligi asir olinibdi, ba'zilari o'ldirilibdi. Gerakl asirga tushgan Antiopani Teseyga beribdi. Tesey unga uylanibdi. Gerakl Mikeniga, shoh Evristey huzuriga qaytib kelibdi va Ippolitaning kamarini unga beribdi. Shoh kamarni qiziga hadya qilibdi, biroq Admeta kamarni taqib yurishga botinmay, uni xudolarga hadya sifatida Geraklning ehromiga topshiribdi³⁹.

Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida shunday fikrlarni o'qiymiz.

«Skiflarning shavkatli qahramonliklari to'g'risidagi hikoyamizni skif xalqining kelib chiqish tarixidan boshlash kerak. Ularning ayollari jasoratda erkaklaridan qolishmasdi, haqiqatdan ham, agar ularning o'zlari Parfiya va Baqtriya podsholiklari tuzgan bo'lsalar, ayollari esa amazonka podsholigiga asos solgandi. Shuning uchun skiflarning erkaklari bilan ayollarining qahramonliklari haqida fikr yuritadigan kishi ikkilanib qolishadi. Qaysi jins jasoratliroq bo'lgan deb, bu haqda qiziqarli hikoyalar aytishadi»⁴⁰.

Jahon adabiyotida amazonkalar haqida juda ko'plab asarlar bitilgan.

Qisman bo'lsa-da, haqiqatan ham amazonkalarning bo'lganligi haqida Plutarx ham izoh berib o'tadi.

Ko'plar, shular jumlasidan Klitarx, Poliklit, Onesikrit, Antigen va Istrlarning aytishlaricha, Aleksandrning oldiga amazonka (amazonka – maxsus otliq kiyimini kiygan chavandoz ayol) keladi. Lekin Aristobul, Aleksandrning

³⁹ Ellada qahramonlari, Toshkent, «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1976, 114-116-betlar.

⁴⁰ Yustin. Epitoma Pompey Troga. Vestnik drevney istorii, 1954, № 2, str. 211.

qo'riqchisi Xaret, Ptolomey, Antiklid, Filon Fivanskiy, teangeniyaalik Filipp, Gekatey Eretriyskiy, Filipp Xalkidskiy va Durid, Somoskiylar buni uydirmagap deb tasdiqlaydilar. Aleksandr ham ularning fikriga qo'shilganday. Antipatruga batafsil yozgan xatida, skiflarning shohi unga xotinlikka qizini bermoqchi ekanligi haqida so'z yuritilgan. Amazonka haqida esa hech narsa aytilmagan. Aytishlariga qaraganda, oradan ancha vaqt o'tgandan so'ng, o'sha paytda shoh bo'lgan Lisimaxga o'zining amazonka haqida yozgan to'rtinchi kitobini o'qiyotganda, Lisimax kulib, tarixchidan: «Men o'sha paytda qayerda edim?»⁴¹ deb so'rabdi.

Diodor skiflar va amazonkalar haqida yana bir qator muhim ma'lumotlarni berib o'tadi. Bu o'rinda ularning ayrimlariga to'xtalamiz. Bir qancha vaqtdan keyin skiflarda shohlik lavozimiga erkaklar o'rniga ayollar chiqib oladi. Skif ayollari jang qilish va boshqa ishlar bo'yicha erkaklardan qolishmas edi. Eron shohi Kir davrida ham Formadont daryosi bo'yidagi xalqlarni ayollar boshqarar edi. Hatto ular urushga ham ayollarni tayyorlay boshlaydi. Erkaklarni uy-ro'zg'or va boshqa mayda ishlarga jalb qiladi. Bu haqda maxsus qonun ham chiqariladi. Ataylab o'g'il bolalar yoshligidan urushga yaroqsiz qilib tarbiyalanar, qizlarni esa aksincha, harbiy yurishlarga tayyorlar edilar. Shunday qilib, ayollar hukmdorlik qilgan skif xalqlari juda ko'p joylarni egallab, katta g'alabalarga erishadi. Ularning dovrug'i butun dunyoga tarqaladi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmaydi. Irakliylarga qarshi katta urush olib boradi va ularni asta-sekin yengib, Amazonka degan nomni butunlay yo'q qilib yuboradi. Faqat ulardan Penfesiliya ismli bir jasur ayol ozgina qo'shini bilan tirik qoladi va keyinchalik bu ayol Geraklitga qarshi bir nechta janglarda ishtirok etadi. Lekin u ham Axil tomonidan o'ldiriladi⁴².

«Hatto Eron shohi Kir ham, - deb yozadi Diodor, - ayollar boshqarib turgan skiflarni yenga olmaydi»⁴³. Bu o'rinda Diodor Eron shohi Kirni mag'lubiyatga uchratgan To'marisni nazarda tutyapti. Amazonkalar haqida va

⁹ Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. –T., 2006, 224-b.

⁴² Diodor. O'sha asar, 298-299-betlar.

⁴³ Diodor. O'sha asar, 230-bet.

ayniqsa To'marisning jasorati haqida Gerodot ham o'zining «Tarix yoki tadqiqot» asarida qiziqarli hikoyalarni aytib o'tadi. Xususan, u To'maris haqidagi hikoyatida shunday yozadi: «Massagetlarga qarshi yurish va Kirning o'limi» hikoyasida aytilishicha, Kir Bobilni bosib olib, massagatlarni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Massagetlar Kaspiy dengizining sharq va g'arb qismlari bo'ylab cho'zilgan keng o'lkalarga joylashgan juda ko'p sonli qabilalardan edi. Kaspiy boshqa dengizlar bilan qo'shilmaydi. Uni uzunasiga 15 kunda suzib o'tish mumkin. Dengizning g'arbiy tomonida Kavkaz baland tog'lar bilan o'ralgan. Kavkazda turli xalqlar yashaydi. Ular yovvoyi daraxtlarning hosilini iste'mol qiladilar. Dengizning sharq tomonidagi keng tekisliklar Massaget yerlaridir.

Ular ham otliq, ham piyoda jang qiladilar. Yoy, nayza va dastalari uzun oyboltalar bilan qurollangan. Tilla va misni juda ko'p ishlatadi.

Nayzalari misdan yasalgan. Yoy va oyboltalarining bo'yniga yelka aralash osib yuradigan kamar va tasmalari tilla bilan bezatilgan. Shuningdek, otlarga sovut taqar, suvliqlari, yuganlariga bezaklar taqardi, temir va kumushni ishlatmasdilar. Ekin ekish bilan shug'ullanmasdilar. Go'sht, baliq va sut mahsulotlari bilan oziqlanishardilar. Faqat quyoshni xudo o'rnida ko'rib, otlarni uning poyiga qurbonlik qiladilar.

Kir ularga qarshi urushni xohlab qoladi. U juda mag'rur edi. Shuning uchun ham, o'zgalarni ko'zga ilmasdi. Bosqinchilik urushlarida erishgan ko'p g'alabalar uni yana qonxo'rlik sari yetaklaydi.

Massagatlarning podshohi malika To'maris edi. Unga uylanish niyati borligini izhor etish uchun Kir o'z odamlarini malikaning qarorgohiga yuboradi. To'maris Kirning yovuz niyati borligini sezib, unga rad javobini beradi. Shundan so'ng Kir mamlakat hokimligini o'g'li Kambizga qoldirib, o'zi To'marisga qarshi ochiq jangga o'tlanadi.

To'maris barcha kuchlarini yig'ib, Kirni qarshi oladi, ikki o'rtada qirg'in jang boshlanadi. Vatanparvarlar mardonavor turib jang qiladilar, avval ular

uzoqdan turib, dushman ustiga yoy o'qlarini yog'diradilar. So'ngra nayza va xanjar bilan olishuv boshlanadi. Jang uzoq vaqt davom etadi. Yon berishni hech bir tomon xohlamasdi. Nihoyat, massagetlar g'olib keladilar, yigirma to'qqiz yil (eramizgacha bo'lgan 558-529-yillar) podshohlik qilgan Kir o'ldirilib, dushman lashkarlari qirib tashlanadi. Kirning o'limi haqidagi hikoyalardan eng haqiqatga yaqini mana shu»⁴⁴.

Gerodot keltirgan ushbu faktning o'ziyoq qachonlardir skiflar podshohi ayol kishi bo'lganligini tasdiqlaydi. Ularni qadimgi tarixchilar amazonlar, ya'ni bir siynasi kesilgan jangovar ayollar deb ta'rif bergan bo'lishi mumkin. Bu o'rinda Gerodot bergan ta'rifga e'tibor qilib, massagetlarning Kaspiy dengizi – Sharq va G'arb tomonidagi yerlarda yashaganini nazarda tutsak, bu joylar Girkaniya va Oks daryosi bo'ylariga to'g'ri keladi. Skif ayollaridan podshohlar bo'lganligini To'maris orqali ham isbotlashimiz mumkin.

Bu o'rinda skiflar haqida va amazonkalar xususida to'xtalar ekanmiz, grek va Rim tarixi bizga shu narsani aniqlab berib turibdiki, skiflar aslida O'rta Osiyodan tarqalgan bo'lib, hozirgi Turkman (Girkaniya), Ozarbayjon, Turkiyaliklar, Qrim orolida yashovchi turk qabilalari, Qozon atrofida yashovchi tatarlar, Ural tog'larigacha cho'zilib ketgan yerlarda yashovchi qozoqlar, oltoylik turkiy qabilalar, bu tomoni Xitoyda yashovchi uyg'urlar, qirg'izlar (ular o'zlarini shimol tomondan ko'chib kelganmiz deyishadi, baribir bizga urug'dosh bo'lgan) va boshqa turkiy qabilalar turli sabablarga ko'ra o'sha qadim zamonlardayoq uzoq ellarga ko'chib ketishgan. Aslida ularning eng qadimiy vatani O'rta Osiyo bo'lgan. Ularning tili bir, hatto bir urug'dan tarqalgan. Faqat tilidagi ayrim o'zgarishlar geografik muhitga bog'liq ravishda farqlanib borgan. Hozir ham masalan, bir millat bo'la turib, ikki joyda yashovchi kishilar tilida katta o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bunday turkiy qabilalar hozir bir-biridan qanchalik uzoq yashamasinlar qarindosh ekanliklarini, urug'dosh bo'lganliklarini, hatto asli eng qadimiy vatani O'rta

⁴⁴ Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kn. Chetvertaya, 325, 325-b.

Osiyo ekanliklarini unutmasliklari kerak. Fikrimizcha, skiflar bir qabilaga mansub bo'lmasdan, bir qancha qabila va elatlar yig'indisi, ayniqsa, bir-biriga yaqin tilda so'zlashuvchi qabilalar shu nom bilan atalgan bo'lishi mumkin. Masalan, hozirda va o'tmishdagi turkiy tilda gaplashuvchi xalqqa skiflar deb nom bersak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Esxil o'zining «Zanjirband Prometey» tragediyasida Amazonkalar haqida qisqacha to'xtalib shunday deydi:

«Toki erkak zotini xush ko'rmovchi qavm
Yashaydigan qo'shinlarga duch kelguningcha
Bu qo'shinni tashkil etar otliq ayollar;
Maskanlari – Fermadonta, Femiskirada.
Suyaklardan uyum qurgan qahhor Salmides.
Kemalarga dahshat solar dengizda turib,
Ular senga ko'rsatishar ezgu yo'l-yo'riq⁴⁵.

Bu o'rinda ulug' dramaturg amazonkalar nomini aynan tilga olmasa ham, gap mazmuni amazonkalar haqida borayotganligini anglash qiyin emas. Bu o'rinda amazonkalar Orol dengizi bo'ylaridan Kaspiy dengizigacha cho'zilib ketgan keng o'lkada yashaganliklarini tasavvur qilish mumkin. Bundan chiqadiki, amazonkalar dovrug'i Esxil yashagan davrlardayoq uzoq Gretsiyaga tarqalgan edi. Bunday faktlar juda qimmatli bo'lib, amazonkalar haqidagi tasavvurimizni boyitadi. Demakki, bizning jasur ayollarimiz qadimda qorong'u kulbalarda quldek hayot kechirib qolmasdan, jahonga dovrug' solib, hukmronlik ham qilib kelgan.

Esxilning «Zanjirband Prometey» tragediyasida amazonkalar tilga olinib o'tiladi. Hatto, amazonkalar ham tog'ga zanjirband qilingan Prometeyning ayanchli holini ko'rib achingan ekanlar. Bundan ko'rinadiki, amazonkalar haqidagi hikoyatlar faqat afsonalardan iborat bo'lib qolmasdan, balki tarixiy haqiqatga ega. Eramizdan avvalgi V asrlarda amazonkalar nomi Esxil yashagan

⁴⁵ Esxil. «Zanjirband Prometey». -Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 64-bet.

o'lkalarga yetib borgan. Amazonkalarning Kaspiy bo'ylarida yashashi, hatto Kavkaz tog'ida zanjirband qilingan Prometeyning holini ko'rib achinganligini Esxilning ta'kidlashi fikrimizning dalilidir.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, Amazonkalarning Prometeyning holini ko'rib achinganligi afsonaviy hodisaga o'xshaydi. Chunki Prometey afsonasining o'zi mifologik xarakterga ega. Biz uchun Esxilning amazonkalar haqida fikr bildirishining o'zi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Esxildan ilgari Amazonkalar haqida grek xalq ijodiyoti («Ellada qahramonlari») orqaligina ma'lumotlar olgan edik. Individual adib ijodida amazonkalar haqida hech bir fikrlarni uchratmagan bo'lsak, endi Esxilning «Zanjirband Prometey» tragediyasida bu jasur ayollar haqida so'z yuritish masalani yanada oydinlashtiradi.

Achinmoqda senga hatto,
Sheryurakli amazonkalar⁴⁶.

Amazonkalar haqidagi hamma faktlarda xoh u mifologik xarakterga ega bo'lsin, xoh tarixiy fakt bo'lsin, jasur ayollar bo'lganligi qayd qilinadi. Amazonkalar dushmanga nisbatan shafqatsiz bo'lgan. Esxil aytganidek, bu skif avlodlari bo'lmish ayollar «Sheryurakli» edi.

Garchi mifologik xarakterga ega bo'lsa ham, ko'pgina asarlarda ayrim joylar, hatto qahramonlar ham tarixiy bo'lishi mumkin. Bu holni biz yunon mifologiyasining boshlanishi bo'lmish Homer asarlarida ham uchratamiz. Mifologik xarakterga ega bo'lsa-da Esxil asarlarida joy va tarixiy qahramonlar nomini uchratamiz. Kavkaz tog'i, skiflar, amazonkalar haqidagi ma'lumotlar fikrimizning dalilidir.

Ehtimol, Esxil Kavkaz tog'lari, Qora dengiz va Kaspiy bo'ylab O'rta Osiyo tomonlarga kelgandir. Yoki bironta grek sayyohidan bu o'lkalar haqida ma'lumotlar to'plagandir. Chunki tarixiy joylar jug'rofiyasini o'z asarida aniq

⁴⁶ Esxil. Zanjirband Prometey, Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 39- bet

chizib berganligiga guvoh bo'lamiz. Bu holni biz Prometeyning Argos shohi Inahining qizi Ioga aytgan so'zlari orqali yaqindan bilib olamiz.

Sen-chi, Io, so'zlarimni jo qil qalbingga,
Bilmoq bo'lsang sargardonlik intihosini.
Bunday o'tib haydalmagan dalalar bo'ylab,
Odimlaysan Mag'rib sari. U yerda senga
Yo'liqadi ko'chmanchi xalq – vahshiy skiflar⁴⁷.

Bu o'rinda Esxil mag'rib tomonlarda «haydalmagan yerlar» borligini ta'kidlash bilan, skiflarning yer haydab, dehqonchilik qilishdan ko'ra, ko'proq chorvachilik bilan shug'ullanishlarini qayd etmoqda. Shu bilan birga, Esxil skiflarni «ko'chmanchi xalq» deb aniq izoh bermoqda. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, skiflar tarixi bilan shug'ullanuvchi yirik mutaxassis olimlar, skiflarning qadim zamonlarda asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib yashaganliklarini va asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganligini aytgan edilar.

Esxil skiflarning asosan chodirlarda yashaganliklarini qayd qilib o'tadi. Bu chodirlar hatto g'ildirakli aravaga tortilganligini ham ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, skiflarning ko'chib yurishi qulay bo'lishi uchun chodirlarini aravachalarga o'rnatib olgan edilar. Bu haqda shunday yozadi:

Ular bari chodirlarda o'tkazishar kun,
Chodir jilar g'ildiraklar yordami bilan⁴⁸.

Esxil skiflarning jangovar xalq bo'lganligini aytadi. Ayniqsa, skiflar kamondan o'q otishga usta bo'lganligini ta'kidlaydi. Jangovarlikda va kamondan o'q otishda, ularga bas kelish qiyin edi, deydi. Esxil skiflar yurtida bo'lgandek, xuddi ular bilan uchrashgandek aniq ma'lumotlar beradi. «Zanjirband Prometey» tragediyasidagi ayrim misralarni o'qib, ehtimol, Esxil olis skiflar yurtiga kelgandir, deb o'ylanib qolasan, kishi.

⁴⁷ Esxil. Zanjirband Prometey, 63- bet.

⁴⁸ Shu kitob, 63-bet.

Yovni ko'zlab olislardan kamon tutganlar.

O'q otishar, sen ularga kelmagin yovuq.

Vale yo'ling tushaversin kanora bo'ylab,

G'arqob bo'lib zorlanadi unda dolg'alar⁴⁹.

Esxil skiflarning behudaga o'q uzmasligini aytadi. Agar sen ularga ozor bermasang, ularga dushmanlik ko'zi bilan qaramasang, ular bekorga hujum qilmaydi, deydi.

Esxil Amudaryoning ham qadimiy nomini tilga olib o'tadi. Bu yerlardan so'qmoq axtarib ovora bo'lma, baribir adashib ketasan, deydi shoir.

Esxil Amudaryoni Araz nahri deb ataydi. Boshqa qadimgi tarixchilarning asarlarida Oks, Araks deb nomlangan.

Yura-yura so'ng kelasan Araz nahriga,

Behudaga berilmagan ana shunday nom.

O'tib bo'lmas, u yerdan sen so'qmoq axtarma⁵⁰.

Tragediya muallifining ta'kidlashicha, Araz daryosiga Kavkaz tog'lari yaqin.

Esxil o'z asarida amazonkalar mana shu Araz daryosiga yaqin joyda yashayotganligini ishora qiladi. Bu o'rinda Araz daryosi qadimgi greklar tilida nomlangan Oks daryosi ekanligiga shubha qilmaymiz. So'ngra, deydi Esxil, yuksak cho'qqili viqorli tog'lar orasidan o'tib, «peshingacha sandiroqlaysan».

Toki erkak zotini xush ko'rmovchi qavm,

Yashaydigan qo'shinlar duch kelmaguncha⁵¹.

Tragediyaning keyingi qismida amazonkalar haqida kengroq ma'lumotlar beriladi. Esxil amazonkalarning «otliq ayollar» ekanligini ta'kidlaydi. Amazonkalarning viloyati Fermodonta, Femiskirada degan o'lka ekanligi ham aniq ko'rsatib o'tiladi.

Bu qo'shinni tashkil etar otliq ayollar,

⁴⁹ Esxil. Zanjirband Prometey, 63-bet.

⁵⁰ O'sha asar, 63-bet.

⁵¹ O'sha asar, 63-bet.

Maskanlari – Fermodonta, Femiskirada.

Esxil amazonkalar haqida ta'rif berar ekan, Osiyo to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Shundan so'ng «Yevropaning dalalarin qoldirib ortda», «Osiyo qit'asiga yetib kelasan» deydi. Bu o'rinda «Osiyo» so'zi «Asiylar qit'asi» deb berilgan. Esxil osiyoliklarga yuksak baho beradi. Osiyoliklar «Bor ne'matni yaratuvchi xalqi azim» degan fikrni aytib o'tgan, ya'ni bu o'lka osiyoliklar yashaydigan joy noz-u ne'matlarga mo'l-ko'l, hamma narsa yetishtiriladi, to'kin-sochinlik, degan ma'noda.

Ko'rinib turibdiki, Esxil o'z tragediyasida amazonkalar haqida alohida to'xtalib o'tib, keng izoh bermoqda. Amazonkalar haqidagi fikrimizni boyitmoqda. Ularning yashayotgan o'lkasi Osiyo tarafda, Kavkazga yaqin joyda, degan gaplarni aytmoqda.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak, Esxil yashagan zamonda amazonkalarning dovrug'i uzoq Gretsiyagacha borib yetgan. Xususan, Esxil va uning zamondoshlari amazonkalar haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lgan. Osiyolik jasur ayollar o'zlarining erki va iqboli uchun kurashib, uzoq ellarga ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Bugun biz avlodlar bu jasur ayollarimizning izini qidirib topmoq uchun hali ko'p xayrli ishlar qilishimiz lozim bo'ladi.

Amazonkalar nomi Homer yashagan zamondan bir necha yuz yillar ilgari ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Aytishlaricha, yunonlar bilan troyaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan jangda amazonkalar katta jasorat ko'rsatadi. Olimlarning aniqlashicha, bu urush miloddan avvalgi XIII asrda bo'lib o'tgan ekan. O'sha qirg'in urushda amazonkalar o'z qavmlari bo'lmish troyaliklarning nihoyatda og'ir ahvolga tushib qolganini, yunonlarning qurshovida qolgan xalq o'z shahrini mardonavor himoya qilayotganini eshitib chidab turolmaydi. Shunday og'ir ahvolda do'stga yordam bermoqni ular o'zlari uchun buyuk sharaf deb bilishadi. Axir skiflar avlodi ilgari bir necha bor Troyaga tashrif buyurishgan, shoh Priamning ulug' mehmoni bo'lishgan. Troyaliklar bilan skiflar o'rtasida

qalin do'stlik, savdo-sotiq, bordi-keldi yo'llari mavjud edi. Amazonkalar troyaliklarni katta fojia kutayotganini, hatto ulug' pahlavon Xektorning o'limi haqidagi shum xabarni eshitib, shoshilinch yo'lga tushadilar. Tez kunda uchqur otlar mingan malika Penfesiliya boshchiligidagi amazonkalarning katta qo'shini Troyaga yetib keladi.

G'am-g'ussaga botib o'tirgan Troya shohi Priam amazonkalarning yordamga kelganini eshitib behad xursand bo'ladi. Malika Penfesiliya sharafiga katta ziyofat berib, o'z qizidek shod-u hurramlik bilan qarshi oladi. Erkaklardek shijoatga ega bo'lgan, kuch-qudrati to'lib toshgan malika yunonlarning barcha pahlavonlarini mahv etaman, kemalariga o't qo'yib hamma Troya dushmanlarini qirib tashlayman, deydi ko'zlarida o't chaqnab.

Nihoyatda epchil, ayniqsa, kamondan o'q otishda hech kim teng kela olmagan amazonkaliklar, troyaliklarning qolgan-qutgan barcha jangchilari bilan birikib ertasi kuni axeylarga qarshi jang boshlaydilar. Axeyliklar amazonkalarning shiddatli jangiga dosh berolmaydi. Axeylarning qurollari asosan qilich-qalqon va nayzadan iborat edi. Amazonkalar ot ustida yoy o'qini bexato otib, axeylarni qirib, tobora dengiz tomon surib borardi.

Yunonlarning mag'lubiyatga uchrashi aniq bo'lib qoladi. Katta g'alabadan ruhan tetiklashgan troyaliklar va amazonkalar yanada shiddatliroq jang qilishar edi. Ne-ne jang ko'rgan yunon lashkarlari sarosimaga tushib qoladi. Raqiblarining bunchalik kuch-qudratni qayerdan olganliklariga hayron edilar. Shunda kutilmaganda yunon pahlavoni Axilles yordamga yetib keladi. Axilles sherday o'kirib jangga kiradi. Penfesiliya Axillesni mo'ljalga olib nayza otadi. Nayza pahlavonning qalqoniga tegib sinib ketadi.

Amazonkalar malikasi pahlavonga qarata ikkinchi marta yoydan o'q otadi, ammo bu safar ham uni jarohatlay olmaydi. Shunda Axilles g'azabga to'lib bor kuchi bilan raqibiga tashlanib, uni yaralaydi. Malika yaralanganini sezib, qilichini yalang'ochlab, endi Axillesni o'ldirishga qaror qiladi. Axilles raqibining yaralanganidan foydalanib, vujudi kuchga to'lib, shunday nayza

sanchadiki, natijada nayza otning bo'ynidan kirib, malikaga borib sanchiladi. Malika oti bilan birga yiqilib tushadi. Shunda Axilles raqibining boshidagi dubulg'a (shilom)sini yechib qarasaki, ayol kishi bilan jang qilib g'olib chiqqan ekan. Pahlavon malika Penfesiliyaning husn-jamolini ko'rib, mahliyo bo'lib qoladi.

Penfesiliya shunday go'zal ediki, hatto u go'zallikda ma'buda Artemidadan ham qolishmasdi. Axilles malikaning qarshisida sarosimaga tushib, uni chin yurakdan sevib qolganini sezib, dili fig'on bo'ladi.

So'ngra ulug' pahlavon Axilles malikaning jasadini chuqur qayg'u bilan janggohdan olib chiqib, troyaliklarga hadya etadi. Troyaliklar jangda mardonavor halok bo'lgan yana o'n ikkita amazonkaning jasadini qurol-aslahalari bilan qo'shib, izzat-hurmat bilan o'tda kuydiradilar.

Yana bir hikoyatda aytilishicha, amazonkalar hatto Afinaga bostirib borishadi. O'sha vaqtda Afina podshosi Tesey edi. Tesey «argo» kemasida «oltin junli teri» qidirib Kavkaz tog'lariga, hatto skiflar yeriga ham kelib ketgan. Bunday xatarli safar chog'ida ko'p marta jang-u jadallar, qirg'in urushlarni boshidan kechirgan. U hatto Amazonkalar shahri Femiskiraga hujum qilib, bu shaharning malikasi Antiopani sevib qoladi. Shundan so'ng, Antiopani o'ziga xotin qilib uzoq Afinaga olib ketadi. Afinaliklar malikani katta hurmat bilan qarshi oladilar.

Amazonkalar o'z shohi Antiopaning uzoq ellarda sarson-sargardon bo'lishidan xavotirlanib, malikani asiralikdan ozod qilish uchun uzoq Afinaga yurish boshlaydilar. Amazonkalar shaharni vayron qilib, attikaliklarni yoydan o'qqa tutib, chekinishga majbur etadilar. O'z eri Teseyni nihoyatda sevib qolgan, Antiopa ham eri bilan birga o'z qavm-u qarindoshlari bo'lgan amazonkalarga qarshi shiddatli jangga kiradi. Ikki o'rtada qattiq jang boshlanadi. Nogahon, otilgan bir yoy o'qi Antiopaning ko'kragiga sanchiladi. Malika yonida jang qilayotgan eri Teseyning oyog'iga yiqilib, jon beradi. O'z

shohi Antiopaning amazonkalar odatiga xiyonat qilib, o'lganini eshitgan otliq ayollar Afinani tark etib, o'z yurtlariga qaytib keladilar.

Bunday afsonaviy hikoyatlar asosida ma'lum darajada haqiqat yotganligini sezamiz. Skif avlodlaridan bo'lmish amazonkalarning qadim zamonlardayoq, Troya, Afina kabi uzoq ellarga ma'lum va mashhur bo'lishi bugungi kundagi xotin-qizlarimizning ham qalbini iftixor va g'urur bilan to'ldiradi.⁵²

Afrodita. Uncha nozik bo'lmagan, shamol kabi ayol Afrodit qonli janglarga aralashadi. U xudolar ko'nglida, odamlar muhabbatidadir. Ushbu hukmronlikka ko'ra Afrodit butun dunyoning hokimi. Uning hukmidan hech kim qochib qutila olmaydi, hatto xudolar ham. Faqatgina jangari Afina, Gestiya, Artemida uning qudratiga bo'ysunmaydi. Baland bo'yli kelishgan, yuz tuzilishi nozikroq, mayin to'lqinli oltin sochli, xuddi ajoyib guldasta boshiga o'rnatilgan kabidir. Afrodit go'zallik, charchamas yoshlik manbaidir. Har xil hushbo'y hid taratib turuvchi kiyimlarda, o'z go'zalligini ko'z-ko'z qilib borayotganda, quyosh yanada yorqinlashgandek tuyuladi. Gullar hashamatli gullaydi. Agar u o'rmonga kirsa, yovvoyi o'rmon hayvonlari chakalakzorlardan uning oldiga yugurar, qushlar galasi uning oldiga shoshilishardi. Sherlar, panteralar, barslar va ayiqlar unga mayin suykalishardi. Afrodit yovvoyi hayvonlar orasidan sekin yurib borar va o'zining ko'zni qamashtiradigan darajadagi chiroyidan g'ururlanardi. Uning yo'ldoshlari go'zallik va gratsiya xudolari Ora va Xaritalar unga xizmat qilardi. Ular ayol xudo Afroditaga dabdabali kiyimlar kiygizishar, uning oltin sochlarini tarashar, uning boshiga yaltiroq diodemadan gulchambarlar kiygizishardi. Kifera (Kipr) oroli yaqinida Afrodit tug'ilgan bolib, u qor kabi oq dengiz to'lqinlari ko'pigi, Uranning qizi edi. Uni dengiz to'lqinlaridan chiqib kelgan muhabbat xudolari – yosh Oralar o'rab turardi. Ular Afroditani oltin matolar tikilgan kiyimlar kiygizib, har xil xushbo'y hidlar taratuvchi gulchambarlar taqishardi. Afrodit qayerda paydo bo'lsa, o'sha yerda

⁵² Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. –T., 2006, 233-b.

hashamatli gullar o'sib chiqar edi. Butun osmon xushbo'y hid taratar edi. Erot va Gimirod qiz xudoni Olimpga olib bordilar. Hamma xudolar uni baqirib tabriklaydilar. Shundan beri hamma vaqt Olimpdagi xudolar orasida tillo Afrodita yashab kelmoqda. U bir umr yosh xudolarning ajoyibidir. Afrodita dastlab osmon xudosi bo'lgan, u yomg'ir yuborgan hamda dengiz xudosi ham hisoblangan. Afrodita to'g'risidagi miflarda uning kultiga sharqning katta ta'siri bor, ayniqsa, Notartining ta'siri kuchli. Asta-sekin Afrodita muhabbat xudosi aylandi. Muhabbat xudosi Erot uning o'g'li.⁵³

Afina-Pallada. Afina-Pallada xudosi Zevsning o'zi tomonidan dunyoga keltirilgan. Momaqalldiroq keltiruvchi Zevs idrok xudosi Metisning ikki farzandi, qizi Afina va haddan tashqari kuch va aqlga ega bo'lgan o'g'li bo'lishligini oldindan bilgan. Taqdir xudosi Moyra Zevsqa Metis xudoning o'g'li uni, ya'ni Zevsni taxtdan tushiradi va undan dunyo hukmronligini tortib olishini bashorat qiladi. Buyuk Zevs qo'rqib ketadi. Daxshatli taqdirdan qutilib qolish maqsadida Metis xudoni yaxshi gaplar bilan uxlatib uning qizi xudo Afina tug'ilguncha uni yutib yuboradi. Bir qancha vaqtdan keyin Zevs dahshatli bosh og'rig'ini sezdi. Shu payt u o'g'li Gefestni yoniga chaqirib, kallamni kesib tashlaysan deb buyurdi va boshidagi tovush hamda chidab bo'lmas darddan halos bo'lmoqchi edi. Gefest boltani qattiq siltab, kuchli zarba bilan Zevsning bosh chanog'ini yordi, unga ziyon yetkazmasdan uning kallasidan qudratli jangchi Afina-Pallada xudosi dunyoga keldi. To'la qurollangan yaltiroq shhlemda, nayza va qalqon bilan Olimpiya xudolari ko'z o'ngida namoyon bo'ldi. U dahshatli yaltiroq nayzasini silkitdi. Uning jangovor hayqirig'i butun osmon bo'ylab uzoq-uzoqlarga tarqaldi va oydin Olimpni poydevorigacha tebratib yubordi. Go'zal, buyuk bo'lib xudolar oldida turardi. Afinaning moviy ko'zlari ilohiy donishmandlikdan yonardi, butun olamga tatiydigan darajada go'zal edi. Ota – Zevs boshidan tug'ilgan uning qizini xudolar olqishladilar. U, ya'ni Afina-Pallada shaharlar himoyachisi donishmandlik va bilimlar xudosi,

⁵³ Кун Н.А. Легенда и мифы древней Греции. –Т., 1968, 51-б.

yengilmas jangchi edi. Afina Gretsiya qahramonlariga homiylik qiladi. O'zining aqlli maslahatlarini beradi, ularga xavf tug'ilganda ularni himoya qiladi. U shaharlar, qo'rg'onlar va ularning devorlarini saqlaydi. U aql va bilim beradi, odamlarni san'at va hunarmandchilikka o'rgatadi. Hech bir inson yoki xudo Afinadan to'qish san'atida o'zib keta olmaydi. Hamma bu masalada u bilan musobaqalashmaslikni yaxshi biladi, bu san'atda Afinadan ustun bo'lmoqchi bo'lgan Idmonning qizi Araxna qilgan qilmishiga yarasha jazosini olganligini hamma yaxshi biladi.

Afina (Rimliklarda Minerva) – Gretsiyaning eng qadrli xudolaridan biri bo'lib, grek xalq eposida katta rol o'ynagan. Afina – shaharlarning asrovchisi. Gomer Troyasida Afina statiyasi bo'lgan va go'yoki osmondan tushgan va palladium deb nomlanib, Troyani u qo'riqlaydi deb hisoblashgan. Grek madaniyatining rivojlanishi bilan Afina fanning homiysi ham hisoblanadi.⁵⁴

Artemida. Doimo yosh, go'zal ayol xudo Deposda bir vaqtning o'zida akasi oltin sochli Appolon bilan tug'ilgan. Ular egizak. Eng olijanob sevgi, eng yaqin do'stlik aka-singilni bog'lab turardi. Ular onasi Latonani chuqur yaxshi ko'rgan. Artemida hammaga hayot bag'ishlagan. U dalada, o'rmonda o'sadigan, yerda yashaydigan hammaga g'amxo'lik qilgan. U yovvoyi hayvonlar, podadagi uy hayvonlar va odamlarga g'amxo'rlik qilgan. U o'tlarning o'sishiga, gullar va daraxtlarning gurkirab o'sishiga sababchi bo'lgan. Tug'ilishni, to'ylarni va nikohni yorlaqagan. Grek ayollari Zevsning shon-shuhratli qizi Artemidaga boy qurbonliklar qilgan, chunki u nikohdagilarga baxt ato etgan, kasallarni tuzatgan. Doimo yosh, go'zal, oydin kun kabi xudo ayol Artemida kamon va o'q-yoy bilan yelkasida, qo'lida ovchi nayzasi bilan yorqin o'rmonlarda quyoshga burkangan dalalarda ov qilardi. Nimflarning shovqinli davrasi uni kuzatib yurar va u ulug' ovchilarning kalta tizzasigacha tushib turgan kiyimida tog'larning o'rmon bilan qoplangan yon bag'irlarida tez yugurardi. Undan va adashmay nishonga tegadigan yoy o'qlaridan qo'rqib qochayotgan kiyik, epsizlangan

⁵⁴ Кун Н.А. Легенды и мифы древней Греции. –Т., 1968, 26-б.

g'azabnok to'ng'iz o'sib ketgan qamishlar orasida bo'lsa ham qutila olmas edi. Artemidaning ortidan uning hamrohlari nimflar ergashib yurardi. Uzoq tog'lardan quvnoq kulgi itlar galasining akillashlari eshitilib turar va ularga javoban tog' aks-sadosi eshitilib turardi. Artemida ovda charchasa u nimflar bilan muqaddas Delfiga o'qchi sevimli akasi Appolon qoshiga shoshar edi. U yerda dam olar, dugonalari va nimflar bilan xor bo'lib ashula aytardi. Hammadan oldinda nozik, go'zal, hamma nimf va muzalaridan go'zal va bir bo'yin uzun Artemida borardi. Artemida dam olishni yoqtirar edi. Hammaning ko'zidan pana bo'lgan mayin maysalar hidi ufurib turgan salqin havodan nafas olardi. Uning tinchini buzganning ahvoli voy edi. Shundan Avtonoinning yosh o'g'li Aktion, Fivan podshosining qizi Kadma halok bo'lgan. Artemida (Rimliklarda Diana) – Gretsiyaning eng qadimiy ayol xudolaridan biri. Shunisi ma'lumki, Artemida ovchilar xudosi dastlab yovvoyi va uy hayvonlariga, ya'ni umuman hayvonlarga homiylik qilgan. Artemidaning o'zi qadimda hayvon ko'rinishida tasvirlangan, masalan, ayiq ko'rinishida. Artemida Afina yaqinidagi Attikada tasvirlangan. Keyinchalik Artemida ona farzandni dunyoga keltirayotganda qo'riqlagan va farzandning eson-omon tug'ilishini ta'minlagan. Yorug'lik xudosi Appolonning singlisi sifatida u oy xudosi ham hisoblangan va Selena xudoga o'xshab ketadi. Artemida kulti Gretsiyada keng tarqalgan. Uning Efis shahridagi xarami, ya'ni qasri mashhur hisoblanadi.⁵⁵

Ariadna – greklar mifologiyasida Krit shohi Minos va Parsifayaning qizi, Quyosh Geliosning nabirasi edi. Tesey Krit orolidagi labirintga qamab qo'yilganida unga sevib qolgan Ariadna, unga o'zining ipini berib, labirintdan chiqaradi va uni qutqaradi. «Ariadna iplari» tushunchasi shundan kelib chiqqan.⁵⁶

Amalfeya - grek mifologiyasidagi nimfa; boshqa versiyalarga qaraganda, Zevsni o'z suti bilan katta qilgan echki. Reya o'z o'g'li Zevsni Krit orolida Kronosdan yashiradi. Reyaning xizmatkorlari – kurentlar va karibantlar o'z

⁵⁵ Кун Н.А. Легенды и мифы древней Греции. –Т., 1968, 23-24-бб.

⁵⁶ Словарь античности. –М., 1989, 45-б.

qurollarini bir-biriga urib, chaqaloq yig'isini eshittirmaydilar. Amafeya iltimosiga ko'ra, o'z raqslari bilan bolani ovutishadi. Noxosdan sinib qolgan echkining shoxidan Zevs farovonlik, seroblik shohini yasaydi va osmonga ko'taradi. Krit tog'ida Amalfeya titanlarni o'ldirgani uchun yashirib qo'yiladi. Amalfeyaning terisi Zevsqa qalqon – egeda sifatida xizmat qilgan.⁵⁷

Garpiyalar. Yunon mifologiyasida dengiz xudosi Tavmanta va okeanida Elektraning qizlari. Garpiyalar arxaik Olimp ma'budalari. Ularning soni ikkitadan beshtagacha. Yarim ayol, yarim qush ko'rinishida qo'rqinchli tasvirlanadi. Ularning ismlari – (Aella, Aellova, Podarga, Okipeta, Kelayno) ofatlar va zulmat bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Afsonalarda ular shamol kabi yelib, bolalar va odamlar jonini zudlik bilan olib ketuvchi deb tasvirlangan. Garpiyalarning shamolga yaqinligi shu bilan bog'liqki, Garpiyalardan Podarga va Zefiradan ilohiy otlar Axilla tug'ilgan. Garpiyalar podsho Fineyani qiynagan, ovqatini o'g'irlab, uni ochlikdan o'ldirganligi haqida afsonalar mavjud. Biroq Garpiyalar Finey yaqinlari, Borey o'g'illari tomonidan quvg'in qilindi. Garpiyalarni o'ldirishga Irida xalaqit beradi. Garpiyalarni Egey dengizida, keyinchalik boshqa maxluqlar bilan aidga joylashtirildi.

Gekata. Yunon mifologiyasida zulmat ma'budasi. Titaniklar Pers va Asteriyaning qizi. Uran uni buyuk kuch bilan taqdirladi. Gekata qadimgi xtonik ma'buda. U ovga, chorvachilikka, otlarni ko'paytirishga, odamning jamoatchilik ishiga, bolalarni va o'smirlarni himoyalashga ko'maklashadi. Qo'lida olov va sochlarida ilonlari bilan qo'rqinchli tun ma'budasi. U Medeyaga Yasonni muhabbatini qozonishga yordam bergan. Afsungar va sehgardir. U kechalari qabrlar atrofida kezib, arvohlarni chaqiradi. O'lik va tirik olamni bog'laydi. Gekata Demetrage, Peresfonaga yaqindir. Gekata tasviri yo'l chorrahalariga joylashtirilgan va unga qurbonliklar qilingan.

Gerofila. Yunon mifologiyasida taqvodor, folbindir. Troadada nimfa va cho'pon Georodosdan tug'ilgan. U Spartadan bir ayol (Yelena) Troyaning

⁵⁷ Словарь античности. –М., 1989, 29-б.

o'limiga sababchi bo'ladi deydi. Boshqa sevdalar singari Gerafila ham Samosda, Delosda, Delfada ko'p yayov kezgan. Gerafila Eniyning taqdirini oldindan aytib beradi. Traodaga qaytib, Apollon qamishzoriga joylashadi. Xudolardan o'ziga abadiy yoshlikni so'rashni unutib, uzoq yillar qarilikda yashaydi (Rimliklar Anna Perenna bayramida bir-birlariga sivillinna yoshini tilashadi).

Geya. Yunon mifologiyasida ona-yer. Geya xaosdan keyin tug'ilgan. O'z-o'zidan Uran osmonni yaratgan va unga turmushga chiqadi. Uran bilan Geya oltita titan va oltita titanidlarni tug'adi, ularning ichida Zevsning ota-onasi Kronos va Reya. Geya Olimp ma'budalari hayotida faol ishtirok etmaydi, lekin faqat ularga dono maslahatlarini beradi. U Reyaga Zevsni qanday qutqarishni va Zevsning taqdiri qanday kechishini aytib beradi. U juda kuchli bo'lib, bolalarini shu kuch bilan to'ydirgan, uning o'g'li shu kuch tufayli hammadan ajralib turardi. Vaqt o'tib uning kuchi so'na boshladi. U donishmand ayolga aylandi. Keyinchalik Apollaning folbin ayoliga aylandi.

Gera. Buyuk ayol xudo Gera, himoyasidagilarni ushlab turuvchi Zevsning xotini, nikohni himoya qiladi va nikoh ittifoqining ilohiyligini va mustahkamligini qo'riqlaydi. U er-xotinga ko'plab bola-chaqa yuboradi, onanai bola tug'ishda eson-omon tug'ilishini tilaydi. Buyuk ayol xudo Gerani, uni va uning aka-ukalari, opa- singillarini Zevs tomonidan mag'lub etilgan Kron qarg'agandan so'ng uning onasi Reya dunyoning narigi burchagidagi oqsoch Okeanga olib borgan, u yerda Gerani Fetida tarbiyalagan. Gera Olimpdan juda uzoqda ko'p tinch va sokin hayot kechirdi. Buyuk momaqalldiroq paydo qiluvchi Zevs uni ko'rib qoladi, sevib qolib, Fetidadan o'g'irlab qochadi. Xudolar Zevs va Gera to'yini tantanali nishonlaydilar. Irida va Xaritlar Geraga dabdabali kiyimlar kiydirdilar, o'zining yoshlik ufurib turgan go'zalligi bilan Olimp xudolari galasi orasida ajralib turib, xudolar va odamlar podshosi Zevs bilan birga oltin taxtga o'tirar edi. Hamma xudolar Geraga sovg'alar ulashardi, yer xudosi Geya yer boyliklaridan Geraga sovg'a sifatida oltin hosilli olma daraxti yetishtirgan edi. Butun tabiat malika Gera va Zevsni shon-shuhrat ila qutlardi.

Osmono'par Olimpda hukmronlik qilardi. Eri Zevs kabi momaqaldir oq va chaqmoq yuborar, bir og'iz gapi bilan osmonni qora yomg'ir bulutlari qoplar, qo'l harakati bilan shovqinli bo'ron turg'izardi. Go'zal buyuk Gera shaxlo ko'z nozik qo'lli boshidagi gulchambari ostidan jingalak sochlari to'lqinlanib tushib turardi. Hukmronlik va osoyishta buyuklik bilan ko'zlari yonib turardi. Geraga bulutlarni haydovchi eri Zevs va atrofida gilar izzat-hurmat ko'rsatardi va u bilan maslahatlashishardi. Ammo tez-tez Gera va Zevs o'rtasida tortishuvlar bo'lib turardi. Ko'p hollarda ayniqsa xudolar majlislarida Gera Zevsga qarshi chiqib tortishar bu holda momaqaldir oq paydo qiluvchi Zevs g'azablanib Gerani jazolamoqchi bo'lardi. Bu vaqtda Gera jim bo'lib, g'azablarini ichiga yutardi. Gera Zevs uni jazolash uchun oltin zanjirlar bilan bog'lab yer va osmon o'rtasiga osib qo'yganini va oyoqlariga ikkita og'ir tosh bog'laganini eslaydi. Hukmronligi bo'yicha undan qudratlirog'i yo'q edi. Buyuk Afinaning o'zi tikkan dabdabali uzun kiyimda ikki abadiy otlar qo'shilgan aravada Gera Olimp bo'ylab kezardi. Arava kumush bilan qoplangan, g'ildiraklari sof oltindan kegaylari yaltiroq misdan yasalgan edi. Gera o'tgan joydan xushbo'y hid ufurib turardi. Butun tirik zot Olimpning buyuk malikasiga ta'zim qilardi. Gera haqidagi miflarda Gretsiyadagi ayollarning ahvoli o'z ifodasini topgan. Chunki grek ayollari erlari qatori bir xit huquqqa ega emas edi va hamma vaqt erlariga bo'ysungan. Gera ham eri Zevs qaramog'ida bo'lgan.⁵⁸

Danaya. Yunon mifologiyasida Argos podshosi Akrisiyning qizi. Nabirasi qo'lidan o'lishini orakuldan eshitib, qizini misli yerto'laga qamab qo'yadi va uni qo'riqlaydi. Biroq Zevs oltin yomg'ir bo'lib, bu to'laga tushadi va Danaya Perseyni tug'adi. Danaya o'g'li bilan otasining buyrug'iga binoan katta qutiga solishib, dengizga oqizib yuboriladi. Quti Serif oroliga kelib uriladi va ularni podshoning akasi Diktis qutqaradi. Diktis Danayaga uylanadi va Perseyni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Danaya obrazi antik tasviriy san'atda o'z

⁵⁸ Кун Н.А. Легенда и мифы древней Греции. –Т., 1968, 14-б.

o'rnini topdi. Yevropa san'atida XVI asr rang tasvirida – Loto, Korredjo, Tiyan, Tintoretto, Veroneze, Rembrand va boshqalar keng tarqalgan.

Demetra va Persefona. Qudratli va buyuk xudo Demetra. Demetra yerga hosildorlik ato etdi, uning qudratisiz soyali o'rmonlarda, o'tloqlarda va haydalgan yerlarda hech narsa o'smaydi. Demetra (Rimliklarda Serera) – Gretsiyada eng izzat-hurmatga sazovor xudolardan. U – hosildorlik va dehqonchilik xudosi. Uni, asosan, yer egalari e'zozlashgan. Uning sharofatiga har yili Gretsiyada ko'plab bayramlar uyushtirilgan. Shunisi xarakterliki, Gomer poemalarida Demetra ikkinchi darajali qilib bayon qilingan. Bu shundan darak beradiki, greklar uni buyuk xudo deb dehqonchilik ularning asosiy hayotiy faoliyatiga aylangandan so'ng e'zozlashgan, chunki bu paytga kelib chorvachilik o'z ahamiyatini yo'qota borgan.

Persefonani Aid tomonidan o'g'irlanishi.

Buyuk xudo Demetraning yosh, go'zal qizi Persefona bor edi. Persefonaning otasi, buyuk Kronning o'g'li momaqaldiraq keltiruvchi Zevsning o'zi edi. Bir vaqt go'zal Persefona o'zining dugonalari okeanidlar bilan, tashvishsiz, gullar bilan burkangan Nisey vohasida o'ynab yurardi. Yengil qanotli kapalak kabi Demetraning yosh qizi guldan-gulga sakrardi. U chiroyli atirgullarni, xushbo'y fialka, qor kabi oppoq liliyalarni va qizil giatsintlarni uzardi. Persefona otasi Zevs tomonidan tayinlangan taqdirdan bexabar holda o'ynab yurardi. Persefona endi hech ham bu gullarni, quyosh nurlarini yana ko'ra olmayman deb o'ylamagan edi. Chunki Zevs o'zining badqavoq ukasi Aidga uni erga bergandi. U o'lganlarning hukmdori, podshosi edi. O'sha bilan Persefona janub, issiq, quyosh yoritmaydigan, qorong'u yer osti podsholigida yashashi kerak edi. Aid Persefonani Nisey vodiysida o'ynab yurganini ko'rdi va shu payt olib qochib ketishga qaror qiladi. U yer xudosi Geyadan juda chiroyli gul o'stirib berishni iltimos qildi. Geya rozi bo'ldi va Nisey vodiysida shunday gul paydo bo'ldi. Uning mast qiluvchi xushbo'y hidlari har tarafga tarqaldi. Persefona gulni ko'rib qoldi va uning poyasidan ushlab maqsadida qo'lini

cho'zdi va gulni uzib oldi. To'satdan yer yorilib, qora otlar qo'shilgan oltin aravada yer tagidan, qorong'u, o'lganlar soyasining podshosi Aid chiqib keldi. U yosh Persefonani ushlab olib, ko'tarib, aravaga o'tqizadi va zudlik bilan yer qa'riga kirib ketadi. Persefona qichqirishgagina ulgurdi, xolos. Demetra yosh qizining qo'rqinchli ovozi uzoq-uzoqlarga tarqaldi, hatto yorqin Olimpgacha eshitildi. Uning Aid tomonidan o'g'irlab ketilganligi Gelios – quyosh xudosidan boshqa hech kim ko'rmadi. Xudo Demetra Persefonaning ovozini eshitdi. U Nisey vodiysiga shoshdi va qizini har yerdan izladi, uning dugonalari okeanidalardan so'rab surushtirdi, ammo uni hech kim ko'rmagan edi. Demetra yolg'iz qizini yo'qotgandan qattiq qayg'urdi. Demetra 9 kun hech narsa yemay va o'ylamay yer bo'ylab achchiq ko'z yoshlarni to'kib tentirab yurdi. U Persefonani hamma joydan izladi va hammadan yordam so'radi, ammo hech kim unga yordam bera olmadi. Oxirgi 10-kun Demetra quyosh xudosi Gelios yoniga kelib yolvordi: “O nurlarga burkangan Gelios, sen oltin aravangda butun osmon, yer, dengiz bo'ylab kezib yurasan, hamma narsani ko'rasan va sendan hech narsa yashirina olmaydi. Agar sen baxtsiz onaga ozgina rahming kelsa, ayt menga mening qizim, Persefona qayerda, uni qayerdan qidiray?” – deydi. Nurlarga burkangan Gelios Demetraga: Buyuk xudo, sen bilasan men seni hurmat qilaman, ko'ryapsanki, men ham qayg'uda. Shuni bilki, buyuk bulutlar haydovchisi Zevs sening qizingni badqavoq ukasi Aidga berib yubordi. U Persefonani o'g'irlab qarorgohiga olib ketdi. G'amlaringni unut, qizingning eri buyuk, qizing qudratli, buyuk Zevsning ukasiga xotin bo'ldi, deb uni yupatadi.⁵⁹

Yunon mifologiyasida hosildorlik va dehqonchilik ma'budasi, Kronos va Reyaning qizi. Zevsning opasi va xotini, undan Persefona tug'ilgan. Eng hurmatli Olimp ma'budasi. Dehqonlarning ko'makchisi, juda chiroyli, sochlari oltin boshqoq rangida, yoqimtoy yuzli ma'buda. Demetra odamlarni yer haydash va ekishga o'rgatgan. Demetra Elevsin podshosi o'g'li – Treptolemni dalaga don sohib uni qayta ishlashga o'rgatdi. Demetra hayot uchun kurashuvchi

⁵⁹ Словарь античности. –М., 1989, 61-б.

timsolda berilgan. U nafaqat Aid tomonidan o'g'irlangan qizi – Persefona haqida alamli qayg'uradi. Demetra eng qadimgi dehqonchilik va hosildorlik ma'budalaridan sanaladi.

Yevropa. Boy Finikiya shahri Sidon podshosi Agenorning 3 o'g'li va go'zal, abadiy xudo kabi qizi bor edi. Shu yosh va go'zal qizning ismi Yevropa edi. Bir payt Agenorning qizi tush ko'rdi. U tushida Osiyo va undan dengizlararo uzoq bo'lgan materik, ikki ayol qiyofasida unga tashlanganligini ko'rdi. Har bir ayol Evropani egallashga harakat qiladi. Osiyo mag'lubiyatga uchradi. Endi u o'zi tarbiyalagan va emizib katta qilgan Yevropani boshqa materikka topshirishga majbur edi. Qurquvdan uyg'onib ketgan Yevropa, ushbu tushning ta'birini bila olmay hayron edi. Agenorning yosh qizi taqdirga tan berib ibodat qilib, agar tush unga xavf tug'dirsa ushbu baxtsizlikni undan yiroqlashtirilishini xudolardan so'radi. Oltin suvi yuritilgan hashamatli liboslarga burkangan holda dugonalari bilan yam-yashil gullar bilan burkangan, o'tloqlarga tutashgan dengiz qirg'og'iga bordi. Ular o'ynab-kulib Sidon qizlari oltin savatlariga gullar terishdi. Ular oppoq xushbo'y nafis, krokuslar, fialka va liliyalar terib oldilar. Agenorning qizi esa o'zining chiroyini ko'z-ko'z qilib, Afrodita kabi xarirlar bilan o'ralgan holda o'zining oltin savatchasiga faqatgina qirmizi atirgullarni terdi. Gullar terib charchagan qizlar o'yin-kulgi bilan sho'x-sho'x qo'shiq kuylay boshladilar. Ularning yosh jarangdor ovozlari uzoq-uzoqlarga eshitilardi. Go'zal Yevropaning tashvishsiz hayoti uncha ko'pga cho'zilmadi. Uni Kronning o'g'li qudratli bulutlarni haydovchi Zevs ko'rib qoldi va uni o'g'irlashga qaror qildi. O'zining ko'rinishi bilan yosh Yevropani qo'rqitib yubormaslik uchun u ajoyib ho'kiz qiyofasiga kirdi. Zevs xo'kizning yungi oltin kabi toblanar edi. Uning peshonasi oy nurlari kabi yarqirar edi. Oltin shoxlari egilgan edi. Ajoyib ho'kiz o'tloqda paydo bo'lib asta-asta qadam tashlab, o'tlarga yengil tegishgan holda qizlar davrasiga yaqinlashdi. Sidon qizlari undan qo'rqmadilar va uni o'rab olib mayin silay boshladilar. Hokiz Yevropaga yaqinlashdi va uning qo'llarini yalay boshladi hamda unga

erkalandi. Yevropa ho'kizning oltin yunglarini silab, uning boshini quchoqlab uni o'pdi. Ho'kiz go'zal qiz oyoqlariga yotib huddi uni minishga undaganday bo'ldi. Kulib, xushchaqchaq Yevropa ho'kizga minib oldi. Boshqa qizlarning ham minmoqchi ekanligini sezgan ho'kiz zudlik bilan oyoqqa turib, dengiz tomon yugirib ketdi. Dengizga o'zini tashladi, xuddi delfin kabi dengizga suzib ketdi. Zevs Yevropani o'g'irlagan edi. Dengiz xudosi Poseydonning o'zi ularni kuzatib borardi. Yevropa Zevsning turmush o'rtog'iga aylandi. Shundan beri ular Kritda yashab kelardi. U Zevsdan uch o'g'il ko'rdi. Ular Minos, Radaman, Sarpedon edi. Ularning shuhrati butun olam bo'ylab yoyildi.⁶⁰

Kalliopa («go'zal ovoz sohibasi») – grek mifologiyasida Olimp muzalaridan biri, Zevs va Mnemosinaning qizi. U – epik poeziya va fan ilohasi. Lin va Orfey uning o'g'illari edi. Kalliopa qo'lida yozuv taxtachasi yoki qog'oz va qalam ushlab turgan holda tasvirlangan.

Ilohiy – ona. Ko'plab jahon mifologiyasida asosiy ayol ma'budasi. Ilohiy-ona obrazi dastlab yagona bo'lmagan, uning funksiyalari bir qator mifologik personajlar o'rtasida tarqalgan. Ilohiy-onaning asosiy tavsifi – bir nechta jabhalarga ega yaratuvchilik funksiyasidir. Birinchidan, yaratuvchi – Xudoning xotini sifatida Ilohiy-ona dunyoning yaratilishida ishtirok etadi. Ikkinchidan, Ilohiy-ona barcha mavjudotlarni yaratadi: xudolarni, odamlarni, hayvonlarni, maxluqlarni va boshqadar. Yunon mifologiyasida maxluqlarni Geya («yer») yaratadi, xudolarning onasi bo'lib, uning qizi Reya hisoblanadi. Ilohiy-ona nafaqat yovvoyilik (xaos), balki madaniyat (kosmos) bilan ham bog'liqdir. Uning funksiyalarining bunday ambivalentligi tabiatga arxaik qarashlarining ikkilanishi bilan chiqarilgan. Uning asosiy funksiyasi madaniyatga, shaharlarga, qonunlarga, sirli bilimlarga rahnamolik qilishdir.

Medeya – grek mifologiyasida sehrgar ayol, Kolxida shohi Eeta va Okeanida Idiyaning qizi, Geliosning nabirasi. Medeya to'g'risidagi afsonalar argonavtlar bilan bog'liq.

⁶⁰ Словарь античности. –М., 1989, 120-121-бб.

Nemezida – grek mifologiyasida ma'buda, Niktaning qizi. U odamlar orasida boyliklarning teng taqsimlinishini kuzatadi va qonunni chetlab o'tuvchilarga o'z qahrini sochadi. Nemezida – qasr ma'budasi. Xudolar tomonidan sevimli bo'lgan giperboreylar uning qahridan yiroq. U odamzodning har qanday haqiqatni toptashini jazolaydi.

Pandora – grek mifologiyasida Gefest va Afina tomonidan yaratilgan birinchi ayol. Gefest uni suv va yerdan aralashtirib yasaydi. Afina unga kumush ko'ylak kiydirib, oltin toj taqadi. Pandora Zevsning rejasiga ko'ra, insonlarga baxtsizlik keltirishi va vasvasaga solishi kerak edi.

Sirenalar – yunon mifologiyasida iblis mavjudotlari, Axelay daryosidan tug'ilgan. Bular yarim qush – yarim ayollar, otasidan tabiiy ofat, onasidan esa ilohiy ovoz meros bo'lib o'tgan. Ular ikkitadan uchtagacha. Orol qoyalarida yashaydi, Sirenalar ovozi bilan chaqirib o'sha yerda yegan. Sirena oroli oldidan o'tayotgan Odessey kemanding machtasiga o'zini mahkam bog'lab, o'rtoqlarining qulog'ini sham bilan berkitadi. Ularning sohili yonidan suzib o'tayotganlarida, Odessey ularning ovozini o'zining kuyi bilan formingada o'ynab eshittirishga yo'l qo'ymaydi, argonavtlardan biri dengizga o'zini tashlaydi, lekin uni Afrodita qutqaradi. Sirenalar ba'zan boshqa olam vakillari kabi qabul qilingan. Keyinchalik Sirenalar shirin ovozli va donishmand mavjudotga aylangan.

XULOSA

Dunyo ilmiy va ommabop adabiyoti bizning davrda axborot asri nomiga ega. Demak, biz ayollarning dunyo madaniyatiga qo'shayotgan ulug' hissasini ta'kidlay olamiz. Malakaviy bitiruv ishi ayollarning dunyo xalqlari miflari va afsonalaridagi obraziga bag'ishlangan. Ularning hayotiy lavhalarida va obrazlarida bir necha bor qayd qilganimiz kabi qadimgilarning axloqiy va estetik baholari ifodalangan. Mif ijodiyligi aniq rassomning tugatilgan kartinasi emas. Ajdoddan avlodlarga yetkazib berilayotgan mif tarixi va ularda qatnashayotgan shaxslar doimiy ravishda o'zgarib turibdi, chunki ular hayotda yuz berayotgan aniq o'zgarishlarga tayanadi. Bir qator mifologiyalarda an'anaviy jihatdan ayol an'analari erkak an'analarga aylanib ketadi. Masalan, abxazliklarda Anapa-naga deb ataluvchi hosil xudosi bor, ya'ni tarix keltiruvchi ona ushbu xudo er jinsini unga oldingi ayol ismi berkitib qoldirilgan. Ushbu mif va boshqa miflarni qayta ko'rib chiqib shunday xulosaga kelamizki, miflar yaratilishi davrida ayol juda katta mavqeni egallagan. Ayrim miflar qadimiy jamiyatda ayol muhim rol o'ynaganligi to'g'risidagi tasdiqlar uchraydi, ular erkaklarnikiga qaraganda ancha salobatli va yuqori bo'lgan.

Bu kundagi erkin ayolning taqdirida ko'plab ochilmagan imkoniyatlar mavjud. Shunga qaramasdan, ayol ayollik iffatini hech qachon yo'qotmaydi. Shoir V.Bryusov: "Sen – ayol, sen – kitoblar oralig'idagi kitob, sen o'ralgan, tamg'alangan tugun" deb hayol qilgan. Bu tugun hali ochilganicha yo'q. Biz qo'shimcha qilib ayol hali ham o'zining o'zligini izlab yuribdi, deya olamiz. Bu tugunning boshlanishi – tumanli mif, unga ayol buyukligi va erkinligi kirib, keyinchalik cho'zilib ketgan tragediya harakatlari boshlanib ketadi. Insoniyat ayol taqdiri to'g'risida yangi poema yarata oladimi, degan savol tug'iladi. Ayol va erkak o'zaro munosabatlari dunyoda ajralib qolgan makonda rivoj topayotgani yo'q. Hozirgi davr odami dunyoni tasavvur etish va o'rganishdan toliqmaydi. Ayol-tabiati-erkak uchburchak shakldagi tizimni qarab chiqishni xalqaro iqtisodchi Vladimr Toom taklif qilgan. Bugun biz xohlasak,

xohlamasak-da erkak konstruksiya yasaydi. U tabiat qonunlarini poymol qilib, uning eng takomil ijodi hisoblangan – Ayol planetamizni halokat qirg'og'iga olib keldi. Endi ushbu uchburchakni axtaramiz. "Tabiat uning qonunlari – bu cho'qqi, uning asosi esa ayol va erkak teng holda bir va tabiat bilan muloqot olib bormoqda". Mif taqdiri ham tugallanmagan. Uning sarguzashtlari cheksiz. U dunyo bo'ylab kezib yuribdi, shoirni ilhomlantirish uchun yo u yerda yoki bu yerda paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. –T., 2006.
2. Вардман С. Женщина в древнем мире. –М., 1991.
3. Геродот. История. В девяти книгах. Кн. 4, -М, 1974.
4. Гросс П. Талисмания и мифология древнего мира. Ростов на Дону, 2007.
5. Ellada qahramonlari, Toshkent, «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1976.
6. Esxil. «Zanjirband Prometeu». -Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
7. Диодор. Историческая библиотека. –Ташкент, 1977.
8. Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Ташкент, 1992.
9. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Изд.: МГУ, 1963.
10. Кун Н.А. Легенда и мифы древней Греции. –Т., 1968.
11. Словарь античности. –М., 1989.
12. Yustin. Epitoma Pompeya Troga. Vestnik drevney istorii. 1954. № 2.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix-falsafa fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrası**

Namurotova Vazira Shakarboyevna

**QADIMGI AFSONA VA ASOTIRLARDA
AYOL OBRAZI**

5220100 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar Djurakulov M.D.

SAMARQAND – 2012